Faoliyat motivlari haqida tushuncha. Shaxs va uning motivasiyasi. Motivlarning anglanganlik darajasi: anglangan va anglanmagan motivlar. Ustanovka tushunchasi. Faoliyat jarayonida ustanovkalarni o'zgartirish muammosi. Muvaffaqiyatga erishish motivlari va maqlubiyatdagi shaxs xulq-atvori. Istiqbol motivlari va hayajon, tashvish. Tashvish va imtihonlardagi sinovlarda shaxsning o'zini-o'zi baholashi va da'volar darajasi. Ijtimoiy xulq motivlari. Jaholat va qo'rquv motivasiyalari va ularni yengish yo'llari. Ishlab chiqarish jarayonida ro'y beradigan turli vaziyatlarda shaxs motivasiyasining o'zgarishi va uni boshqarish masalalari.

**5-mavzu: Shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi.
Bilish mezonlari va ularning adekvatligi.
Idrok, xotira va diqqat jarayonlarini boshqarish**

Shaxs va uning tashqi olamni bilish imkoniyatlari. Bilish qobiliyatining professional faoliyatga aloqadorligi, bilish jarayonlari klassifikatsiyasi: idrok va idrok adekvatligini ta'minlovchi psixologik qonuniyatlar, xotira va shaxs tajribasining boyligi, esda yaxshi olib qolish qonunlari; xotirani o'stirish va tarbiyalash. Materialni yaxshi esda saqlab qolishdagi individual farqlar.

Bilish jarayonlarini boshqarish usullari. Ta'lim va tarbiya jarayonida bilish qobiliyatlarini takomillashtirishning psixologik tamoyillari va shartlari. Pedagogning ushbu jarayondagi roli va o'rni. Ishlab chiqarish vaziyatlarida bilish jarayonlarini samarali boshqarishning amaliy ahamiyati.

**6-mavzu: Tafakkur va mustaqil fikrlash shart-sharoitlari.
Ijodiy va mantiqiy fikrlash – sog'lom ma'naviyat
va e'tiqodni tarbiyalashning omili sifatida**

Tushunish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati. Fikr va fikrlash operatsiyalari. Konvergent va divergent tafakkur, ijodiy va mantiqiy fikrlash yo'llari. Tafakkurning shaxs va undagi ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog'liqligi. Yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish va erkin fikrlashni tarbiyalash tamoyillari. "Fikrning kuchi – uning erkinligidadir!" tamoyilining ijtimoiy-psixologik mohiyati. Tafakkur operatsiyalari, shakllari va ularning ijodiy va mantiqiy fikrga aloqasi. Nostandart va erkin fikrlash mashqlariga o'rgatish texnologiyalari.

Mustaqil fikrlash – yoshlarda atrof-borliq to'g'risida xolis va obyektiv tasavvurlarning shakllanishi uchun psixologik shart-sharoit ekanligi. Fikr erkinligining milliy qoya va istiqloq mafkurasi tarbiyasiga ijobiy ta'siri. Erkin fikrlash va baxs madaniyatining ijtimoiy-psixologik shartlari. Professional mahoratning tafakkurning egiluvchanligi va fikr erkinligi bilan bog'liqligi.

**7-mavzu: Shaxsning individual psixologik xususiyatlari va
ularni diagnostika qilish. Xarakter, temperament va
qobiliyatlarni bilishning ahamiyati**

Individual tipologik xususiyatlar klassifikatsiyasi. Shaxsning iqtidori va qobiliyatlarini diagnostika qilish muammosi. Qobiliyatlardagi orttirilgan va tug'ma xususiyatlar. Qobiliyatlarning psixologik strukturasi va ularning shaxs xarakteri va temperamental xususiyatlariga boqliqligi. Yoshlardagi qiziqishlarni diagnostika qilish yo'llari. Temperament va xarakterning o'zaro bog'liqligi, shakllanishi va namoyon bo'lishi. Xarakter tarbiyasi.

Individual psixologik xususiyatlarning kasb mahorati va shaxs barkamolligi bilan bog'liqligi. Ma'naviy barkamol, axloqan yuksak, intellektual jihatdan salohiyatli shaxsni tarbiyalashning mezonlari. I.Karimov yoshlarni mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiyalash, milliy g'oyani shakllantirish va barkamol avlod tarbiyasi tamoyillari to'g'risida.

**8-mavzu: Shaxs taraqqiyotining yoshga bog'liq xususiyatlari.
O'spirinlik va yetuklik davrlari psixologiyasi. Akmeologiya**

Shaxs psixologiyasi va xarakterining yoshga bo'liqligi. Yosh davrlari klassifikatsiyasi, har bir yosh davrning o'ziga xosligi, yangiliklari va rivojlanish shartlari. o'smirlik va o'spirinlik davrlarida shaxs taraqqiyotining o'ziga xos qonuniyatlari; yosh davrlari krizislari haqida. Ijtimoiylashuvning akmeologik xususiyatlari. Yoshlardagi attraksiya va emosional bo'liqlikning namoyon bo'lishi. o'spirinlik davridagi do'stlik, sevgi va sadoqat xislatlarining ko'rinishlari, ularni tarbiyalash yo'llari. Yetuklik davrida professional o'sishning ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari.

Akmeologiya – shaxs taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganuvchi fan tarmog'i sifatida. Yosh davrlari psixologiyasi va akmeologiyaning kasb tanlash va kasbga yo'naltirish muammolari bo'yicha o'zaro bog'liqligi, professionalizm sifatlarining tarbiyasi masalasi.

**9-mavzu: Shaxs insoniy munosabatlar tizimida.
Muomala texnikasi va strategiyasi.
Psixologiyada ijtimoiy ta'sir masalasi.
Samarali ta'sir sirlari**

Insoniy munosabatlar tizimi – shaxs dunyoqarashini shakllantiruvchi birlamchi omil sifatida. Shaxslararo insoniy munosabatlarning va sharqona muomalaning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyati va o'rnini. Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari va shart-sharoitlari. Ijtimoiylashuv institutlarining bu jarayondagi o'rnini: “Oila-bog'chamahalla-maktab-maxsus va oliy ta'lim muassasalari – mehnat jamoalari” tizimida uzluksiz ta'lim va tarbiya mexanizmlari orqali sosializatsiya jarayonini takomillashtirish.

Muloqot texnikasi – verbal va nonverbal vositalar va ulardan o'rinli foydalanishga o'rgatish muammosi. Muloqot strategiyasi: guruhlarda va shaxslararo munosabatlarda monolog, dialog va poliloglarning o'rnini. Muloqotga o'rgatish masalasi – sosial-psixologik trening.

Ijtimoiy ta'sirning turlari: ta'sirlanish, ishonitirish, taqlid qilish va e'tiqodni shakllantirish. Yoshlarda sog'lom e'tiqod va ma'naviyatni shakllantirishning obyektiv va subyektiv shartlari. Katta guruhlar bilan ishlaganda ta'sirning o'ziga xosligi va uni tarbiya jarayonida hisobga olish.

Shaxslararo muloqotning interaktiv xususiyatlari. Shaxslararo ta'sir zaruriyati va imkoniyatlari. Ijtimoiy rollar va ularning ijtimoiy kutishlarga bo'liqligi. Alohida shaxsning o'zgalarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari; guruhiy va guruhlararo ta'sir masalalari. Ijtimoiy muloqot jarayonida mijozlar va hamkorlikdagi shaxslarga ta'sir o'tkazish yo'llari. Samarali ta'sir sirlari. Ta'sir ko'rsatish psixologiyasi.

**10-mavzu: Guruhlarda ijtimoiy faoliyatni tashkil etish. Guruhlarning turlari.
Guruhiy o'zaro moslik, liderlik va konformizm hodisalari**

Shaxs va guruh. Guruhlar klassifikatsiyasi, referent guruh tushunchasi. Guruhlarning o'lchamlari va uning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri. Guruhiy o'zaro moslikning komponentlari va omillari: fiziologik, psixologik, sosial-psixologik va ma'naviy o'zaro moslik tushunchalari. Guruhiy qarorlar qabul qilishda o'zaro moslikning ahamiyati. Guruhlardagi ijtimoiy-psixologik muhit va uni tashkil etuvchilar. Shaxsning guruhdagi sosiometrik mavqeyini aniqlash yo'llari.

Guruhlardagi liderlik hodisasi, uning “rahbarlik” tushunchasidan farqi. Liderlikning sifatleri va ta'sir uslublari. Liderlarning turlari va ta'sir doiralari haqidagi yondashuvlar.

Guruhlardagi konformizm – guruhning alohida a’zosiga ta’sir ko’rsatish va moslashtirish qobiliyati ekanligi. Konform xulqning turlari va mohiyati. Konformizm va negativizm tushunchalari. Jamoalarning o’z a’zolariga salbiy va ijobiy ta’sirlari to’g’risida.

11-mavzu: Guruh sharoitida zamonaviy o’qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalari

Zamonaviy o’qitishning o’ziga xosligi. Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari. Yangi pedagogik va didaktik texnologiyalar joriy etishning psixologik xususiyatlari. Faol o’qitish metodlari va ularning klassifikatsiyasi: munozara, o’yinlar va senzitiv treninglar. Zamonaviy o’qituvchidan talab qilinadigan fazilatlar: professional, ijtimoiy va uslubiy bilimdonlik (kompetentlilik) haqida. Guruh faoliyatini tashkil etishning uslublari: demokratik, avtoritar, neytral, sinovchan va hokazo. “Subyekt – subyekt” munosabatlarini tashkillashtirishning psixologik mohiyati va ahamiyati.

“Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi” va “Ta’lim to’g’risidagi Qonun”da o’qitishning yangi texnologiyalari va o’qituvchi-pedagoglarga qo’yilgan yangi talablar.

O'zbekiston o'z istiqloq va taraqqiyot yo'lidan rivojlanib, xalqaro maydonda o'zining munosib o'rnini topmoqda. Davlatimizning mustaqil taraqqiyot yo'lini ta'minlash uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat va inson manfaatiga qaratilgan bu islohotlarning samarasi bevosita ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga bog'liqdir.

Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sifatli kadrlar tayyorlashga qodir milliy asosga qurilgan va jahondagi ilg'or davlatlar ta'limi taraqqiyoti tajribalariga tayanadigan kadrlar tayyorlash tizimini yaratish asosiy vazifalaridan biriga aylandi. 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" milliy ta'lim taraqqiyoti va milliy kadrlar tayyorlash tizimi istiqbollari belgilovchi hujjat sifatida bu sohadagi ishlarni rivojlantirishda yana bir tarixiy davr boshlanishiga zamin yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati jahon andozalariga mos keladigan kadrlar tayyorlash masalalariga e'tiborni qaratib kelmoqda. Dars jarayonini boshqarish va tashkillashtirishda professor-o'qituvchining bilimi, tajribasi, ko'nikmasi, ilmiy-pedagogik salohiyati, mahorati, qobiliyati asosiy omil hisoblanadi. Shunga ko'ra, jumladan ma'ruzani oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib qo'llaniladigan o'quv qo'llanmalar va vositalar tayyorlanadi. O'quv xonasi dars uchun tayyorlab qo'yiladi.

O'qituvchi ma'ruza qila turib quyidagilarga e'tibor qaratadi:

- Talabalarni savol-javobga undash orqali guruhda muhokama muhitini yaratadi, ijobiy javoblarni shakllantiradi;

- vaqtincha erkin fikr almashishga ruxsat beradi;

- kundalik hayotdan ibratli misollar keltiradi;

- talabalarni savol berishga undaydi;

- ilgari o'rganilgan hodisa va vaziyatlarni yangilari bilan taqqoslashni amalga oshiradi;

- fan doirasida turli ma'lumotlarni jonli, qiziqarli bayon qiladi.

Dars jarayonida talabaning tanqidiy (tahliliy) fikrini shakllantirishda, uchta bosqichdan foydalaniladi:

1. Yo'llanma berish;

2. Ahamiyatini oshirish;

3. Fikrlash.

Talabalarining tanqidiy (taxliliy) fikrini rivojlantirishda interaktiv uslublarning muhim o'rnini bor, bular hamkorlik subyektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga, kashf etishga ko'mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarda ifodalanadi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ikkinchi bosqichi ta'lim jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, ya'ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu murakkab muammolarni yechimini topib ularni amalga keng qo'llash oliy ta'lim tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar belgilaydi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o'quv jarayonini yaxshilash, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanish va shu asosda masofadan o'qitishni keng joriy qilishdan iboratdir.

Ta'lim sifati va usuliga qarab bilim hosil bo'ladi. Bu o'qituvchining mahoratiningina emas, balki tinglovchining istak-xohishi, qobiliyati va bilim darajasini ham belgilaydi. Ta'lim uzoq davom etadigan jarayondir. Bilim esa ta'limning uzluksizligi vositasida beriladigan mavhum tushunchaga ega bo'lgan hodisadir. Bilim xususiylikka ega bo'lsa, ta'lim umumiylikka egadir. Ta'lim barcha uchun bir xilda davom etadigan jarayon. Bilim obyektiv borliqdagi voqeya-hodisalarning in'ikosi natijasida inson miyasidagi mushohadalar va tasavvurlar natijasida hosil bo'ladigan tushunchalar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'limdagi sifat uni berishda ishtirok etadigan kishilar sifati bilan belgilansa, bilim individuallikka ega bo'ladi. Ta'limni amalga oshiradigan yoki dars beradigan kishilarning saviyasi turlicha bo'lishi mumkin.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustivorligini ta'minlaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jaryonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratilik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi subyektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

Keltirilgan konseptual yo'riqlarga asoslangan holda, «Kompyuter modellashtirish» kursining maqsadi, tuzilmasi, o'quv axborotining mazmuni va hajmidan kelib chiqqan holda, ma'lum sharoit va o'quv rejasida o'rnatilgan vaqt oralig'ida o'qitishni, kommunikasiyani, axborotni va ularni birgalikdagi boshqarishni kafolatlaydigan usullari va vositalari tanlovi amalga oshirildi.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar va loyihalar usullari, amaliy ishlash usuli.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

**MA'RUZA VA AMALIY MASHG'ULOTLARDA O'QITISH
TEXNOLOGIYALARI**

1-MAVZU	<i>Pedagogika fanining metodologik asoslari</i>
<i>1.1.Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi.</i>	
<i>O'quv soati: 4 soat</i>	<i>Talabalar soni: 60 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	1- kirish – ko'rgazmali ma'ruza. 2- mavzuiy ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi:</i>	1. Pedagogika fanini predmeti, maqsadi va vazifalari. 2.Pedagogika fanining asosiy tarmoqlari. 3.Asosiy pedagogik kategoriyalar. 4.Pedagogika fanini boshqa fanlar bilan aloqasi. 5.Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarga o'quv kursi xaqida to'liq ma'lumot berish, pedagogika fanining kategoriyalari, ilmiy tadqiqot metodlari xaqida bilim, malaka va ko'nikmalar shakllan- tirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> •pedagogika fanini maqsadi, vazifalari xaqida umumiy tushuncha berish, fanni o'quv jarayonida tutgan o'rni bilan tanishtirish; •o'quv predmeti xaqida umumiy tushuncha berish va asosiy adabiyotlar bilan tanishtirish; • pedagogika fanining asosiy tarmoqlari xaqida ma'lumot berish; •asosiy pedagogik kate-goriyalarni tushuntirish. • pedagogika fanini boshqa fanlar bilan aloqalari xaqida ma'lumot berish; •pedagogik ilmiy tadqiqot metodlarini tushuntirish. 	<ul style="list-style-type: none"> • pedagogika fanini maqsadi, vazifalari, fanni o'quv jarayonida tutgan o'rni yoritib beradi; • o'quv predmetining stukturasi tushuntiriladi; • pedagogika fanining asosiy tarmoqlarini ko'rsatib, izohlab beradi; •asosiy pedagogik kategoriyalarni sanab tushuntiradi. • pedagogika fanini boshqa fanlar bilan aloqalari yoritib beriladi. •pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlarini ko'rsatib, mazmunini yoritadi.
<i>Ta'lim metodlari:</i>	Ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, insert texnikasi, guruhlarda ishlash, aqliy xujum metodi.
<i>Ta'lim vositalari:</i>	Ma'ruzalar matni, marker, doska, kodoskop, skotch slaydlar, tarqatma materiallar,qog'ozlar.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy.
<i>O'qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Test, nazorat savollari.

1.1. Ma'ruzaning texnologik xaritasi
(1 – mashg'ulot)

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish (15 minut)	<p>1.1. O'quv predmeti nomi bilan tanishtiriladi, predmet xaqida dastlabki ma'lumotlar beriladi. Mavzu nomi bilan tanishtiradi. O'tilayotgan mavzu kirish ma'ruza tarzida tashkil etilishi e'lon qiladi.</p> <p>1.2. Semestr davomida pedagogika kursi bo'yicha o'tiladigan mavzular, ularga ajratilgan soatlar (1-slayd) va talabalarni shu predmetni o'zlashtirishdagi reyting tizimi (joriy, oraliq, yakuniy nazorat ballari) bilan tanishtiriladi. (2-slayd).</p> <p>1.3. Bugungi mavzu nomi, rejasi bilan tanishtiriladi va unga izox beriladi.</p>	<p>Eshitadilar.</p> <p>Yozib oladilar.</p> <p>Eshitadilar, yozib oladilar.</p> <p>Eshitadilar.</p>
II. Asosiy bosqich (55 minut)	<p>2.1. Pedagogika fanini predmeti, maqsadi va vazifalari xaqida umumiy tushuncha beriladi. Birinchi rejani «insert» texnikasi orqali taxlil qilish topshiriladi va ma'ruza matni tarqatiladi, «insert» texnikasidan foydalanish tushuntiriladi. (1- ilova) Talabalar bajargan ishlari taxlil qilinadi.</p> <p>2.2. Pedagogika fanining asosiy tarmoqlari xaqidagi ma'lumotlar bilan talabalarni tanishtiriladi. (3-slayd).</p> <p>2.3. Asosiy pedagogik kategoriyalar xaqidagi ma'lumotlarni pedagog marker orqali slaydga yozib, kodoskop orqali ko'rsatadi. Talabalar bilan xamkorlikda asosiy pedagogik kategoriyalarga izoh beriladi. (4- slayd).</p>	<p>Eshitadilar, taxlil qiladilar.</p> <p>Matnni ko'rib chiqadilar va berilgan belgilarni qo'yib chiqadilar.</p> <p>Yozib oladilar.</p> <p>Eshitadilar, yozib oladilar.</p>
III. Yakunlovchi bosqich (10 minut)	<p>3.1. Mavzuni uchta rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma'lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi.</p> <p>3.2. Muhokamada faol qatnashgan talabalarni rag'batlantiradi.</p> <p>3.3. Savollar berish orqali bilimlar mustahkamlanadi. (2- ilova).</p> <p>3.4. Mustaqil ishlashlari uchun vazifa beriladi: mavzuning qolgan ikkita rejasini mustaqil o'rganish.</p>	<p>Tinglashadi, savollar berishadi.</p> <p>Savol – javobda qatnashadilar.</p> <p>Yozib oladilar.</p>

**1.2. Ma'ruzaning texnologik xaritasi
(2 – mashg'ulot)**

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish (5 minut)	<p>1.1. Eslatiladi: mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va bugungi darsda o'tiladigan rejalari.</p> <p>1.2. Baholash mezonlari e'lon qilinadi. (3-ilova)</p> <p>1.3. Dars so'ngida o'tilgan mavzu bo'yicha test o'tkazilishi xaqida ogohlantiriladi. (max 2 ball)</p>	<p>Eshitadilar.</p> <p>Eshitadilar.</p>
II. Asosiy bosqich (60 minut)	<p>2.1. Talabalarni faollashtirish maqsadida «Aqliy xujum» metodini qo'llab, umumiy savol beriladi: «Pedagogika fani nimani o'rgatadi?» «Aqliy xujum» metodidan foydalanishda rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar bilan tanishtiriladi. (4-ilova)</p> <p>2.2. Rejadagi to'rtinchi savol, ya'ni pedagogika fanini boshqa fanlar bilan aloqasi xaqidagi ma'lumotlar ekranda ko'rsatiladi va pedagog tamonidan izoxlab beriladi. (5-slayd).</p> <p>2.3. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari (6- slayd) orqali talabalarga ko'rsatiladi va xar bir ilmiy tadqiqot metodi pedagog tamonidan chuqur yoritib beriladi. Asosiy ma'lumotlarga talabalar diqqatini jalb qilinadi.</p> <p>Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlarini mustahkam o'zlashtirishlari uchun 6 ta guruhga bo'linadi va ekspert varaqlari tarqatiladi. (5- ilova) Guruhda ishlash qoidasi, vazifani bajarish qoidasi tushuntiriladi. (6-ilova). Guruhlar ishini kuzatadi, yo'naltiradi, maslahatlar beradi.</p>	<p>Eshitadilar. Yozib oladilar.</p> <p>Javoblarni doskaga yozib boradi, taxlil qiladi.</p> <p>Yozib oladilar, eshitadilar</p> <p>Fikrlarini bayon qiladilar.</p> <p>Guruhlarga bo'linadilar. Guruh sardorlari ishlarini taqdim qiladi. Boshqa guruh a'zolari savollar beradi.</p>
III. Yakuniy bosqich (15 minut)	<p>3.1. Mavzuga umumiy xulosa qilinadi, eng muhim ma'lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi.</p> <p>3.2. Guruh ishlarini baholarini e'lon qiladi. Guruhni baholash mezonini tanishtiriladi. (7-ilova).</p> <p>3.3. Test yechish uchun qog'oz tarqatiladi. Tushuncha beriladi. Ekranda test savollari ko'rsatiladi. (7- slayd). Test savollarini baholash natijasi (max 2 ball) keyingi darsda e'lon qilinishi aytiladi.</p> <p>3.4. Mustaqil ishlash uchun ma'ruzadagi keyingi mavzuni uchta rejasini o'qib kelish topshiriladi</p>	<p>Tinglashadi.</p> <p>Tarqatilgan qog'ozga familiya, ism, guruhlarini, test nomerlarini va javoblarini yozib pedagogga topshiradilar. Yozib oladilar</p>

Fan bo'yicha o'quv soatlarining taqsimlanishi

№	Mavzular mazmuni	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot
1	Pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	2	2
2	Tarbiya nazariyasi	4	4
3	Ta'lim nazariyasi	4	2
4	Ta'limda pedagogik texnologiyalar	4	4
5	Pedagogik mahorat asoslari.	4	4

2- slayd

Baholash mezonlari:

86 – 100 ball «a'lo»

71 – 85 ball «yaxshi»

55 – 70 ball «qoniqarli»

Joriy baholash – 35 ball.

Oraliq baholash – 35 ball

Yakuniy nazorat – 30 ball.

3- slayd

Хозирги кунда педагогикани асосий тармоклари сифатида куйидагиларни келтириб утамиз. **Ёш даврлари педагогикаси** мазкур гуруҳлар билан олиб бориладиган тарбиявий-ташкилий ишларнинг қонунийлигини тадқиқ этади ҳамда энг аввало уларни тарбияланувчиларнинг укув муассасалари шарт-шароитларида амалга ошириш дастурини ишлаб чиқади.

Катта ёшдагилар педагогикасида олий ўқув юрти шарт-шароитларида ёшларни тарбиялашнинг назарий масалалари ва методикасини ишлаб чиқадиган педагогика тармоғи сифатида олий укув юрти педагогикасининг шаклланаётганлиги, унинг аниқлашиб бораётганлиги кўзга ташланади.

Миллий армиямиз учун мутахассислар тайёрлайдиган ҳарбий ўқув юртларида ёшларга таълим бериш ҳамда тарбиялаш муаммолари билан **ҳарбий педагогика** соҳаси шуғулланади.

Булардан ташқари **оила педагогикаси** бугунги кундаги долзарб вазифалардан бирини ташкил этиб, оилаларда, оила марказларида, маҳаллаларда, жамоат ташкилотларида, оила-никоҳ муассасаларида амалга оширилаётган тадбирларда намоён бўлади.

Умумтаълим укув юртларида эмас, балки ёрдамчи укув юртларида шуғулланишлари мумкин бўлган шахслар яъни, кўриш, эшитиш, сўзлаш аъзоларида камчиликлари бўлган шахсларни меҳнат фаолиятига тайёрлаш, тарбиялаш ва таълим беришнинг ўзига хос томонларини тадқиқ этувчи фанлар педагогика фанининг махсус гуруҳини ташкил этади. Педагогиканинг бу махсус тармоклари дефектология ёки махсус гуруҳга бирлаштирилган.

Дефектология фанлари ўз навбатида алоҳида мустақил бўлган тармоқларга бўлинади:

Сурдопедагогика - қар ва гунг тарбияланувчилар таълим-тарбияси масалалари билан;

Тифлопедагогика - кўзи ожиз тарбияланувчилар таълим-тарбияси билан;

Олигофренопедагогика - ақли ожизлар таълим- тарбияси билан шуғулланади.

Асосий педагогик категориялар қуйидагилардан иборатдир:

1. Тарбия-ўсиб келаётган авлодда ҳосил қилинган билимлар асосида ақлий камолот – дунёқарашни, инсоний эътиқод, бурч ва маъсулиятни, жамиятимиз кишиларига хос бўлган ахлоқий фазилатларни яратишдаги мақсадни ифодалайди. Тарбия бола туғилгандан бошлаб умрининг охиригача оилада, мактабда ва жамоатчилик таъсирида шаклланиб борадиган жараён дир.

2. Таълим – махсус тайёрланган кишилар раҳбарлигида ўтказиладиган, ўқувчиларни билим, кўникма ва малакалар билан қуроллантирадиган, билим, қобилиятларини ўстирадиган, уларнинг дунёқарашини таркиб топтирадиган жараён дир. Таълим жараёни ўқитувчи билан ўқувчиларнинг биргаликдаги фаолияти бўлиб, икки тамонлама характерга эга дир. Ўқитувчининг фаолияти туфайли таълим пухта ўйлаб чиқилган мақсад, мазмун ва дастурлар асосида олиб бориладиган жараёнга айланиб, қутилган натижани беради. Таълим жараёнини мазмунини билим, кўникма ва малака ташкил қилади.

Билим – бу ўқувчилар ўқиш орқали билим билан қуролланадилар. Билимни ҳаётда кўп унум берадиган қилиб қўллаш олиш учун билим билан бирга кўникма ва малака ҳосил қилиш лозим.


Кўникма – машқ қилиш натижасида бериладиган ҳаракатлар йиғиндиси дир.

Иқтидор ва кўникма машқ қилиш ва такрорлаш орқали **малакага** айланади.

Билим асосида кўникма ва малака пайдо бўлади. Билим баҳсда керак бўлса, кўникма меҳнатда, дунёни ўзлаштиришда зарур.

3. Маълумот – таълим – тарбия натижасида олинган ва тизимлаштирилган билим, ҳосил қилинган кўникма ва малакалар ҳамда шаклланган дунёқарашлар мажмуиди р.

Pedagogikani boshqa fanlar bilan aloqasi



Педагогиканинг илмий тадқиқот методлари қуйидагилардан иборат:

1. Педагогик кузатиш методи.
2. Сухбат усули (якка тартибда, гуруҳ билан)
3. Болалар ижодини ўрганиш усули.
4. Тест усули
5. Маълумотларни таҳлил қилиш усули.
6. Эксперимент-тажриба-синов усули.
7. Статистика маълумотларини таҳлил қилиш усули.
8. Математика ва кибернетика усули.

Мавзу бўйича тест саволлари.

1. Билим билан билишнинг фарқи нимада?

- А. Билим-бу-жараён, билиш шу жараённинг маҳсули
- В. Билим бирламчи, билиш иккиламчи
- С. Билимнинг ҳосиласи билиш
- Д. Барча жавоблар тўғри

2. Ёшларнинг интеллектуал камолоти нимага боғлиқ?

- А. Маънавий ўз-ўзини англаш, келажакка ишониш, миллий мафқурани билишга
- В. Ота-онани эъзозлаш, катталарни хурмат қилишга.
- С. Спорт билан шуғулланиш, мусобақаларга қатнашишга.
- Д. Эркин фикрлаш, ўз фикрини ҳимоя қилишга.

3. Педагогик муҳит деганда нимани тушунасиз?

- А. Педагогик муҳит - педагогик мақсадларга мувофиқ равишда махсус тузилган шахслараро муносабатлар тизимидир.
- В. Педагогик муҳит-дарс жараёнидир
- С. Педагогик муҳит-шахслараро муносабатлар тизимидир.

4. Педагогик фаолият тушунчасига таъриф беринг?

- А. Тарбиячининг илмий ишлар олиб бориши
- В. Тарбия жараёнини ташкил этиш
- С. Педагогик фаолият - эстетик, ахлоқий, сиёсий ва иқтисодий мақсадга мувофиқ равишда ёш авлодни ҳаётга тайёрлашнинг ақлан уйлаб қўрилган, катта ёшдагиларнинг ижтимоий зарур бўлган меҳнатининг ўзига хос туридир.

5. Маълумот нима?

А. **Маълумот** - ўқитиш жараёни ва унинг натижаси ҳисобланиб талабада билим, иқтидор ва кўникмаларнинг ўзлаштирилганлигини, билим қобилияти ўсганлиги ва улар асосида илмий дунёқараш, шахсий сифатлар шаклланишнинг, уларнинг ижобий кучлари ва қобилиятларининг қай даражада ривожланлигини англатади.

В. **Маълумот** - маълум мақсадга йўналтирилган, режали равишда амалга ошириладиган педагог-талаба-педагог мулоқати бўлиб, унинг натижасида талабада маълумот, тарбия ва умумий шаклланиш, ривожланиш амалга ошади.

С. **Маълумот** - Одамларнинг маълумоти фақат таълимнинггина натижаси бўлиб қолмай, балки ота-она ва оила тарбияси ўз-ўзини тарбиялаш ва оммавий ахборот воситаларининг (кино, радио, зангори экран ва ҳақозо) таъсирида амалга оширилади.

6. Таълим нима?

А. **Таълим** - ўқув жараёни.

В. **Таълим** - маълум мақсадга йўналтирилган, режали равишда амалга ошириладиган педагог-талаба-педагог мулоқатидир

С. **Таълим** - ўқув фаолияти натижаси

Д. **Таълим** - педагог ва талабанинг ўзаро мулоқоти

1-ilova (2.1)

«Insert» metodidan foydalanilganda quyidagilarga e'tibor bering:

1. Ma'ruza matni xoshiyasida quyidagi belgilarni qoldirib o'qing:

V- o'zimdagi bilimlarga mos keladi.

- bilimlarimga qarama - qarshi keladi.

+ men uchun yangi ma'lumot.

? tushunarsiz # aniqlik talab qiladi # qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan ma'lumotlarni quyidagicha tablisa ko'rinishida tartibga tushuring.

Mavzu savollari.	V	-	+	?
1				
2				
3				
4				

2-ilova (2.1)

Talabalar bilimini quyidagi savollar bilan mustahkamlanadi:

1. Pedagogika fani nimani o'rganadi?
2. Pedagogika fanining vazifalari nimalardan iborat?
3. Sharq pedagogikasi namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
4. Ma'lumot nima?
5. maxsus pedagogika deganda nimani tushunasiz?
6. Ta'lim va tarbiyaning birligi deganda nimani tushunasiz?

3-ilova (2.1)

Talabalar faoliyatini baholash mezonlari.

86 – 100 % 2 ball «a'lo»

71 – 85 % 1,7 ball «yaxshi»

55 – 70 % 1,4 ball «qoniqarli»

Baholash mezonlari

F.I.O.	Baho	Mezonlar			
		Bilim	faollik	Takliflar	Jami ball
	Ballar	0,8	0,6	0,6	2
	%	40	30	30	100

4-ilova (2.1)

«Aqliy xujum» metodini qo'llaganda quyidagi eslatmaga rioya qiling.

- Ўртоқларинг фикрини хурмат қил;
- қанча фикр кўп бўлса шунча яхши;
- Агар фикрлар такрорланса ажабланма ва жахлингни чиқазма;
- Бошқалар фикрини танқид қилма;
- Фикрларни кўплиги янги фикрни туғилишига сабаб бўлади;
- Фикрларингда бир оз шубҳа бўлса ҳам, уларни айтишга ҳаракат қил;

Эксперт варағи №1
Кузатиш методи.

1. Кузатиш методи қандай метод?
2. Кузатиш методининг қандай турлари мавжуд?
3. Кузатиш методига боғлиқ хаётий мисол келтиринг.

Эксперт варағи №2
Эксперимент методи.

1. Эксперимент методи қандай метод?
2. Эксперимент методи қандай турлари мавжуд?
3. Эксперимент методига боғлиқ хаётий мисол келтиринг.

Эксперт варағи №3
Сухбат методи.

1. Сухбат методи қандай метод?
2. Сухбат методини қўллашда олдиндан нималарга эътибор бериш керак?
3. Сухбат методига боғлиқ хаётий мисол келтиринг.

Эксперт варағи №4
Тест, сўровнома методи

1. Тест, сўровнома методи қандай метод?
2. Тестнинг қандай турлари мавжуд?
3. Тест, сўровнома методини қўллаб хаётий мисол келтиринг.

Эксперт варағи №5
Болалар ижодини ўрганиш методи

1. Болалар ижодини ўрганиш методи қандай метод?
2. Болалар ижодини ўрганиш методи педагогикада қандай аҳамият касб этади?
3. Болалар ижодини ўрганиш методига боғлиқ хаётий мисол келтиринг.

Эксперт варағи №6
Статистика маълумотларини таҳлил қилиш методи.

1. Статистика маълумотларини таҳлил қилиш методи қандай метод?
2. Статистика маълумотларини таҳлил қилиш методи педагогикада қандай аҳамият касб этади?
3. Статистика маълумотларини таҳлил қилиш методини моҳиятини очиб берувчи хаётий мисол келтиринг.

Гуруҳларда ишлаш қондаси.

Ҳар бирингиз ўз гуруҳ аъзоларингизни диққат, эътибор билан эшитишга ҳаракат қилинг.

Гуруҳнинг ҳар бир аъзоси фаол, ҳамкорликда ишлаши ва топширилган топшириққа масъулият билан ёндошиши керак.

Ҳар ким ўзига ёрдам керак бўлганда сўраши мумкин.

Ҳамма қатъий тушуниши керак:

- бошқаларга ёрдам бериб ўзимиз ҳам ўрганамиз.

-биз битта қайиқдамиз: ёки баробар сузиб чиқамиз, ёки баробар чўқамиз.

Guruhlarda ishlashni baholash.

Guruh lar.	Javob ning to'liqligi. (1,0)	Sxemalar da berilgan ligi (0,4)	Guruh ishtirok chisining faolligi 0,6)	Ballar.	Bahosi.
1					
2					
3					
4					
5					
6					

1.3. Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Vaqt:</i> 2 soat	<i>Talabalar soni:</i> 20
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot.
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Pedagogika fanini predmeti, maqsadi va vazifalari. 2. Pedagogika fanining asosiy tarmoqlari. 3. Asosiy pedagogik kategoriyalar. 4. Pedagogika fanini boshqa fanlar bilan aloqasi. 5. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari.
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlash tirish va mustahkamlash.	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari.</i>
<ul style="list-style-type: none"> • mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi; • mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi; • kichik guruhlarda ishlashni tashkil qiladi; • o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi; • mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi; 	<ul style="list-style-type: none"> • amaliy mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi; • pedagogika fanini predmeti, maqsadi va vazifalariga ta'rif beradi; • pedagogika fanining asosiy tarmoqlari sanab o'tadi, o'zining erkin fikrini namoyon etadi; • asosiy pedagogik kategoriyalarga izoh beradi, yoritadi. • pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlarini, uning ta'lim jarayonidagi o'rnini o'rganadi;
<i>O'qitish usullari</i>	Topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, baxs-munozara, kichik guruhlarda ishlash, «Pinbord» texnikasi, «Klaster» texnikasi
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, skotch
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruhlarda ishlashga muljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, test savollari.

**“Pedagogika fanining metodologik asoslari” mavzusidagi
amaliy mashg’ulotning texnologik xaritasi**

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>O’qituvchi</i>	<i>talaba</i>
I. Kirish bosqichi. (10 minut)	1.1. Amaliy mashg’ulot mavzusi, maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.	Tinglaydilar. O’UM ga qaraydilar.
	1.2. Ta’lim jarayoni kichik guruhlarda ishlash orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi (1-ilova).	Eshitadilar.
	1.3. Talabalarning mashg’ulotdagi faoliyatini baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova).	O’UM ga qaraydilar.
II. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1. Talabalarni faollashtirish maqsadida savol – javob o’tkaziladi. (3-ilova).	Savollarga javob beradi.
	2.2. Talabalarning fikrini umumlashtirib, ularni 3 ta kichik guruhlariga bo’ladi.	Kichik guruhlariga bo’linadi.
	2.3. 3 kishidan iborat ekspert guruhi tashkil qilinadi.	
	2.4. Mavzu bo’yicha tayyorlangan top-shiriqlarni tarqatadi (4-ilova). Guruhlar faoliyatini tashkil kilishga yordam beradi, kuzatadi, yunaltiradi, maslaxatlar beradi.	Topshiriqlarni bajaradilar.
III.	2.5. Har bir guruh topshiriqlarini bajarib, ekspert guruhiga topshiradi. Har bir ekspert guruhi o’zi ko’rib chiqqan topshiriqlarni to’g’ri yoki noto’g’riligini ko’rsatib beradi.	Jamoa bo’lib topshiriqni bajaradilar, bahs-munozara yuritadilar, qo’shimchalar qiladilar, xu-losa chiqaradilar. Baholaydilar.
	2.6. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to’g’ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi.	
	2.7. Har bir guruhga pedagogikaning asosiy tamoqlarini «Klaster» texnologiyasi asosida ishlab chiqishlari topshiriladi. (5-6-illovalar).	
	2.8. Natijalar tekshiriladi, muhokama qilinadi.	Eshitadi.
2.9. Pinbord texnikasidan foydalanib, pedagogikaning asosiy kategoriyalari, pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlaridi xaqidagi bilimlar mustahkamlanadi. (7-ilova)	Vazifalarni bajaradilar.	
1- guruh: pedagogikaning asosiy kategoriyalari. 2- guruh: pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. 3- guruh: pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlaridi. 4-5-6 guruhlar (har bir guruhda 2 tadan toalaba) ekspert guruhlar. Har bir guruhni bittadan ekspert guruhi nazorat qiladi, yordam beradi. Ishlar tayyor bo’lgach doskaga mustaxkamlanadi. Ekspert guruhlar almashib ishlarni tahlil qiladi. Guruhlariga topshiriqlarni bajarishi uchun yordam beradi. Ularni baholash mezonlari bilan tanishtiradi. Qo’shimcha ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi.	Tayyor ishlarni doskaga iladilar. Ekspert guruhlardagi talabalar ishlarni tahlil qilib, izohlaydi. Bir- birini baholaydi.	
3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni	Eshitadi.	

Yakuniy bosqich (10 minut)	baholash mezonini orqali rag'batlantiradi.	Aniqlaydi.
	3.2. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi: Test savollarini yechish. (8-ilova).	Yozadilar.

1-Ilova (1.3)

Кичик гуруҳларда ишлаш қондаси

1. Талабалар ишни бажариш учун зарур билим ва малакаларга эга бўлмоғи лозим.
2. Гуруҳларга аниқ топшириқлар берилмоғи лозим.
3. Кичик гуруҳ олдида қўйилган топшириқни бажариш учун етарли вақт ажратилади.
4. Гуруҳлардаги фикрлар чегараланмаганлиги ва тайзикқа учрамаслиги ҳақида огоҳлантирилиши зарур.
5. Гуруҳ иш натижаларини қандай тақдим этишини аниқ билишлари, ўқитувчи уларга йўриқнома бериши лозим.
6. Нима бўлганда ҳам мулоқотда бўлинг, ўз фикрингизни эркин намоеън этинг.

2- ilova (1.3)

Guruhlarda ishlashni baholash.

Guruh lar.	Javob ning to'liqligi. (1,0)	Sxemalar da berilgan ligi(0,4)	Guruh ishtirok chisining faolligi(0,6)	Ballar.	Bahosi.
1					
2					
3					
4					
5					
6					

3-Ilova (1.3)

«Тезкор-сўров» саволлари.

1. Педагогика фани нимани ўрганади?
2. Педагогика фанининг вазибалари нималардан иборат?
3. Шарқ педагогикаси намоеъдаларидан кимларни биласиз?
4. Тарбия нима?
5. Таълим нима?
6. Маълумот нима?
7. Таълим ва тарбия жараёнида муҳим методларни куллашнинг ахамияти нимада деб уйлайсиз?
8. Таълим ва тарбиянинг бирлиги деганда нимани тушунасиз?

2 - topshiriq

O'qitish (o'rgatish, ta'lim berish) - bu nima?

To'g'ri javobni aniqlang. Keltirilgan javoblardan ikkitasi xato ekanligini isbotlang.

1. O'qitish tarbiyalanuvchilarni hayotga tayyorlash maqsadida tarbiyachining bilimlarini talabalarga berish.
2. O'qitish jarayoni - bilim, mahorat, malakaga ega bo'lish maqsadida talabalarning mustaqil ta'lim olishini tashkil qilishdir.
3. O'qitish - tarbiyachining bilim, mahorat va malakasini talabalarga berish, hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan faoliyatidir.
4. O'qitish - bu bilim, mahorat va malaka tizimlarini ongli va mustahkam egallashi uchun yo'naltirilgan pedagog va talabalarning ikki tomonlama faoliyatidir. Bunda aqliy qobiliyatlari va bilish manfaatlari rivojlanadi, bilish faoliyatining uslublarini egallash amalga oshiriladi, ilmiy dunyoqarash shakllanadi.
5. O'qitish - pedagogning talabalar bilan munosabatlari, bunda bilim, mahorat, malaka beriladi.

2 – guruhga beriladigan topshiriqlar.

1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga so'zlarni yozing, matnning o'ng tomonida joylashgan javoblarni qog'oz bilan yoping, nuqtalar o'rniga so'zni yozing. Yozganlaringizni to'g'ri javob bilan solishtiring. Javobni to'g'ri topgan xolda, matnning keyingi qismiga o'ting. Noto'g'ri bo'lsa javobni to'g'irlang va xato qilganingizning sababini aniqlashga harakat qiling.

Obyektiv haqiqatni bilish yo'llari, tadqiqot uslublari..... deb ataladi uslublari
Barcha o'rganiladigan hodisalar va bilish jarayonlar mohiyatini o'rganadigan nazariyasi umumiy metodologiya-bu dir
Pedagog jarayonlarning o'ziga xos belgisi, mohiyati ularni o'tishidir
Pedagogik jarayonlar o'zlari- takrorlanmasligi xarakterlidir
Tadqiqotlar qatnashchilarining salomatlik, va rivoj ziyon keltirmaydigan darajada tashkil etilishi kerak
Pedagogika o'zining predmetini ommaviy faqat Tadqiqotlardan foydalanib yaratishi mumkin

2-topshiriq.

Pedagogika tizimiga kiradigan fanlar qaysi guruhga kiritilganligini ko'rsating.

1. Didaktika, psixologiya, tarix, falsafa, maktabshunoslik, tarbiya nazariyasi, maktab gigiyenasi, solishtirma pedagogika.
2. Umumiy pedagogika, yosh davrlar pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika, alohida predmetlarni o'rganish uslubiyoti, maxsus pedagogika, pedagogika tarixi.
3. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi, maktab pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, kasb – xunar – texnika ta'lim pedagogikasi.
4. Umumiy pedagogika, etika, estetika, yoshga doir pedagogikasi, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, maktabshunoslik.

3 – guruhga beriladigan topshiriqlar.


1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga so'zlarni yozing.

Inson taraqqiyot uchun xarakatlantiruvchi qarama- qarshiliklar kuchni yaratadi.
Qarama-qarshiliklar va ichki..... qarama-qarshiliklarga bo'linadi. tashqi
..... va o'rtasidagi ehtiyoj qarama-qarshiliklarga universal imkoniyat xarakterga ega
Rivojlanishning umumiy qonuni insonning bildiradi. Rivojlanishi Ichki va tashqi shart-sharoitlar bilan aniqlanishini
Biogenetik qonunini..... va Gekkel kashf qilishgan Myuller

2. Topshiriq

	Pedagogika fanlari tizimi
Umumiy pedagogika	
Yoshga doir pedagogika	
Kasbiy pedagogika	
Maxsus pedagogika	
Boshqa sohalar	

7-Ilova (1.3)



Mustaqil ishlash uchun test savollari.

1. Talabanning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash turlari

A. Joriy baxolash, oraliq baxolash, yakuniy baxolash

V. Og'zaki va yozma bitiruv

S. Oraliq va yakuniy

D. Joriy va yakuniy

2. O'zbekistonda pedagogik tafakkur va ta'lim-tarbiya taraqqiyoti tarixini shartli ravishda necha davrga bo'lish mumkin?

A) 6 davrga;

V) 4 davrga;

S) 3 davrga;

D) 2 davrga;

3. Tarbiya jarayonining asosiy vazifasi nimalardan iborat?

A. **Tarbiyaning asosiy vazifasi** - yosh avlodni xalqning hayotini yaxshilashga, Vatanining gullab-yashnashiga sarflashni biladigan, istaydigan a'zolari qilib tayyorlashdir.

V. **Tarbiyaning asosiy vazifasi** - yoshlarni vatanparvar, mard, jasur, irodali shaxs qilib shakllantirishdan iborat.

S. Barcha javoblar to'g'ri

D. **Tarbiyaning asosiy vazifasi** - bilim va ko'nikmalarni egallashni tarbiyalash

4. Pedagogik muhit deganda nimani tushunasiz?

A. Pedagogik muhit - pedagogik maqsadlarga muvofiq ravishda maxsus tuzilgan shaxslararo munosabatlar tizimidir.

V. Pedagogik muhit-dars jarayonidir

D. Pedagogik muhit -pedagog va talaba o'rtasidagi munosabatlar yig'indisi

S. Pedagogik muhit-shaxslararo munosabatlar tizimidir.

5. Pedagogik faoliyat tushunchasiga ta'rif bering?

A. Tarbiyachining ilmiy ishlar olib borishi

V. Tarbiya jarayonini tashkil etish

S. Pedagogik faoliyat - estetik, ahloqiy, siyosiy va iqtisodiy maqsadga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan uylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir.

D. Bevosita pedagog va talabanning faoliyati.

6. Sharq pedagogikasi namoyondalari nomlari keltirilgan qatorni ko'rsating?

A. Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Forobiy

V. Abu-Rayxon Beruniy, Ya.A.Komenskiy, Alisher Navoiy

S. Abduraxmon Jomiy, Suxomlenskiy, Forobiy

D. Barcha javoblar to'g'ri

2-MAVZU.	TARBIYA NAZARIYASI
-----------------	---------------------------

2.1.Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi.

<i>O'quv soati:</i> 4 soat	<i>Talabalar soni:</i> 42 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	1-Ko'rgazmali ma'ruza. 2- Ko'rgazmali ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi:</i>	1.Tarbiya jarayoni haqida tushuncha 2.Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. 3.Shaxs rivojlanishida yosh va individual xususiyatlar. 4.Tarbiya usullari xaqida tushuncha. 5.Tarbiya turlari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarga tarbiya jarayoni, tarbiya usullari, tarbiya turlari, shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida tushuncha berish, ularda bilim, malaka, ko'nikma shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> •tarbiya nazariyasi xaqida umumiy tushuncha berish; •shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar bilan tanishtirish; • shaxs rivojlanishida yosh va individual xususiyatlari xaqida ma'lumot berish; • tarbiya usullarini talabalarga tushuntirish. • tarbiya turlari va ularning mazmunini yoritish. 	<i>O'quv natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> • tarbiya nazariyasini og'zaki tushuntiradi; • shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni sanab o'tadi; • shaxs rivojlanishida yosh va individual xususiyatlarni tushuntiradi; • tarbiya usullarini sanab, mohiyatini tushuntiradi. • asosiy tarbiya turlarini mazmuni yoritiladi.
<i>Ta'lim metodlari:</i>	Ma'ruza, namoyish etish, tezkor savol-javob, guruhlarda ishlash, insert texnikasi.
<i>Ta'lim vositalari:</i>	Ma'ruzalar matni, marker, doska, kodoskop, skotch slaydlar, tarqatma materiallar, qog'ozlar.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy.
<i>O'qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Nazorat savollari.

Ma'ruzaning texnologik xaritasi
(1 – mashg'ulot)

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish (5 minut)	1.1. Mavzu nomi, maqadi, o'quv mashg'ulotining natijalari e'lon qilinadi. O'tilayotgan mavzu ko'rgazmali ma'ruza tarzida tashkil etilishi haqida e'lon qiladi. 1.2.Mavzu rejasi bilan tanishtiriladi (1-slayd)	Eshitadilar. Yozib oladilar.
II. Asosiy bosqich (65 minut)	2.1.Tezkor – so'rov texnikasidan foydalanib, o'tilgan mavzu eslatiladi va talabalar faollashtiriladi: *Pedagogika qaysi fanlar bilan o'zaro aloqada? *Ta'lim nima? *Ma'lumot nima? *Surdopedagogika pedagogikaning qanday tarmog'i? *Asosiy pedagogik kategoriyalarni sanab o'ting. 2.2 Tarbiya nazariyasiga umumiy tushuncha beriladi. (2-slayd). Tarbiya jarayonining asosiy xususiyatlari tushutiriladi. (3-slayd). 2.3. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar bilan talabalarni tanishtiriladi. (4,5,6,7-slaydlar). 2.4.Faollashtirish maqsadida savol beriladi: «Hayotda shaxsni rivojlanishiga qaysi omil ko'proq ta'sir etadi?» 2.3. Shaxs rivojlanishida yosh va individual xususiyatlariga ta'rif beriladi. (8-slayd) Bolalarni yosh davrlariga guruhlashtirishni (9-slayd) orqali talabalarga tushuntiriladi.	Savol javobda faol qatnashadilar. Eshitadilar. Yozib oladilar. Savolga javob beradilar, mustaqil fikrlaydilar. Eshitadilar, yozib oladilar.
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1.Mavzuni uchta rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma'lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi. 3.2. Muhokamada faol qatnashgan talabalarni rag'batlantiradi, baholaydi, yozib oladi. 3.3.Mavzuning qolgan ikkita rejasini mustaqil keyingi darsga o'rganib kelishlari aytiladi.	Tinglashadi. Yozib oladilar.

**2.2. «Tarbiya nazariyasi»
mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi.
(2 – mashg’ulot)**

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O’qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish bosqichi (5 minut)	1.1. Eslatiladi: mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va bugungi darsda o’tiladigan rejalari. 1.2. Dars so’ngida o’tilgan mavzu bo’yicha test o’tkazilishi xaqida ogohlantiriladi. (max 2 ball)	Eshitadilar.
II. Asosiy bosqich (70 minut)	2.1.Rejadagi to’rtinchi savol, ya’ni tarbiya usullari xaqidagi ma’lumotlar ekranda ko’rsatiladi. (10,11-slayd) 2.2. Tarbiya turlarini mohiyatini yoritib beruvchi (12-slayd) ekranda namoyish etib, ularning xar biriga izoh beriladi. Asosiy ma’lumotlarga talabalar diqqatini jalb qilinadi. 2.3.Talabalarni 8 ta guruhga bo’linadi va vazifalar beriladi. (1-ilova). Guruhlar ishini kuzatadi, yo’naltiradi, maslahatlar beradi. 2.4. Taqdimot boshlanishini e’lon qiladi.	Eshitadilar. Yozib oladilar. Yozib oladilar, Eshitadilar fikrlarini bayon qiladilar. Guruhlar vazifalarini muhokama qiladilar, fikrlar bildiradilar, umumiy fikrlarni format qog’ozga yozadilar. Guruhdan bir ishtirokchi chiqib, o’z ishini taqdim qiladi.
<ul style="list-style-type: none"> • mavzuni mustaqil o'rganish malakalarini shakllantirish; • mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mus-tahkamlashga yordam berish; • kichik guruhlarda xamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish; • o'z nuqtai nazariga ega bo'lish qobiliyatlarini o'stirish; • mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak berish; 	<ul style="list-style-type: none"> • mavzu buyicha amaliy bilimlarga ega bo'ladi; • pedagogik texnika va uning komponentlari, tarkibiy qismlari mohiyatini mustaqil yoritib beradi; • pedagogik odob-axloq va talaba xulq – madaniyatining asosiy omillarini mustaqil ravishda o'rganib, ko'rsatib beradi; • pedagogik qobiliyat va pedagogik muomala tushunchalariga izoh beradi; • pedagogik mahoratni shakllanishi, rivojlantirishga ta'sir etuvchi muammolarni hamda uning ta'lim jarayonidagi o'rnini mustaqil ravishda o'rganib, taxlil qiladi va izoxlaydi.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, baxs-munozara, kichik guruhlarda ishlash, «Nima uchun» texnikasi
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, skotch
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruxlarda ishlashga muljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

“ Pedagogik mahorat asoslari ”
mavzusidagi amaliy mashg’ulotning texnologik xaritasi

<i>Faoliyat boskichlari</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>O’qituvchi</i>	<i>talaba</i>
I. Kirish bosqichi. (10 minut)	1.1. Amaliy mashg’ulot mavzusi, maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini aytadi. Ta’lim jarayoni kichik guruhlarda ishlash orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi (1-ilova).	Tinglaydilar. O’UM ga qaraydilar.
	1.2.. Talabalarining mashg’ulotdagi faoliyatini baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova).	
II. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1. «Nima uchun» texnikasidan foydalanilgan holda talabalarga, «Nima uchun bugungi kunda pedagogik mahoratga ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda?» degan savol bilan murojaat qiladi. Bajarilgan ishlarni ko’zdan kechirib xulosalaydi (3-ilova).	o’z fikrlarini erkin bildiradilar. Organayzerni to’ldiradilar.
	2.2. Talabalarining fikrini umumlashtirib, ularni 3-4 ta kichik guruhlariga bo’ladi.	Ixtiyoriy ravishda guruxlarga bulinadi.
	2.3. Mavzu bo’yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi (4-ilova)	
	2.4. Guruhlarga topshiriqlarni bajarishi uchun yordam beradi. Qo’shimcha ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi.	Topshiriqlar ustida ishlaydilar.
	2.5. Har bir guruh topshiriqlarini vatman-qog’ozlarga tushirib, taqdimotini o’tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alo-hida e’tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to’g’ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi.	
	2.6. Talabalarni kasbiy mahoratini aniqlash bo’yicha test o’tkazadi. (5-ilova). Har bir talaba topshiriqdagi o’ziga maqbul variantni qog’ozga yozadi.	Fikrlaydilar. Yozadilar.
2.7. Talabalar javobini taxlil qiladi va har bir talabaning kasbiy mahoratini aniqlash javobini aytadi. (6-ilova).	Eshitadilar.	
2.8. Har bir guruh o’z fikrlarini misollar orqali vatman-qog’ozlarga tushirib, taqdimotini o’tkazishda yordam beradi. Yagona xulosa chiqarishga ko’mak beradi va nihoyasida umumlashtiradi.	Topshiriqlar ustida ishlaydilar.	
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag’batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi: «Mening tasavvurimdagi mahoratli pedagog» mavzusida esse yozib keling.	O’UM ga qaraydilar.

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tayziqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

2-Ilova (4.2)

Talabalar faoliyatini baholash mezonlari.

86 – 100 % 2 ball «a'lo»


71 – 85 % 1,7 ball «yaxshi»

55 – 70 % 1,4 ball «qoniqarli»

Baholash mezonlari

F.I.O.	Baho	Mezonlar			
		Bilim	faollik	Takliflar	Jami ball
	Ballar	0,8	0,6	0,6	2
	%	40	30	30	100

3-Ilova (4.2)

«Nima uchun?» texnikasi

1 – guruhga topshiriq.**Эксперт варағи №1**

1. Педагогик мимика ва пантомимика нима ва унга мисол келтиринг.
2. Тарбияси оғир талаба билан педагогнинг хамкорликдаги вазиятига оид педагогик вазият келтиринг.

Эксперт варағи №2

Ўз касбига қарама - қарши бўлган мавзуда, яъни «болаларни севмайдиган педагог» мавзусида ҳикоя тузинг ва ёзган ҳикоянгизни расмлар орқали ватман қоғозда ифода этинг.

2 – guruhga topshiriq.**Эксперт варағи №1**

1. Педагогнинг рухий ҳолати деганда нимани тушунасиз ва ўқув фаолиятига доир мисол келтиринг.
2. Дарсга қизиқмайдиган талабани дарсга қизиқтиришга доир педагогик вазият келтиринг.

Эксперт варағи №2

Ўз касбига қарама - қарши бўлган мавзуда, яъни «Ўғирликда қўлга тушган прокурор» мавзусида ҳикоя тузинг ва ёзган ҳикоянгизни расмлар орқали ватман қоғозда ифода этинг.

3 – guruhga topshiriq.**Эксперт варағи №1**

1. Педагогнинг дарсга тайёргарлигини қандай усуллар орқали билиш мумкин?
2. Гуруҳдаги болларга қўшила олмайдиган талаба билан педагогнинг хамкорликдаги вазиятига оид педагогик вазият келтиринг.

Эксперт варағи №2

Ўз касбига қарама - қарши былган мавзуда, яъни «денгиз касаллигига учраган капитан» мавзусида ҳикоя тузинг ва ёзган ҳикоянгизни расмлар орқали ватман қоғозда ифода этинг.

Kasbiy pedagogik qobiliyatlarni aniqlovchi topshiriqlar

Quyida turli hildagi kasbiy pedagogik qobiliyatlarni aniqlovchi 14 xildagi pedagogik vaziyatlar berilmoqda. Ularni hal etish bir muncha vaqt talab etadi. O'qituvchi dars jarayonida har bitta vaziyatdan unumli foydalanishi mumkin. Bu muammolarni hal etishda quyidagi topshiriqlarni belgilab olish maqsadga muvofiq:

I BOSQICH

Bu bosqich 3 ta topshiriqdan iborat.

1-topshiriq. Har bir pedagogik vaziyatni bittadan talabaga bo'lib bering.

2-topshiriq. Har bir talaba berilgan pedagogik vaziyatlarni mazmun mohiyatini aniqlab olsin.

3- topshiriq. Bo'lib olingan vaziyatlar mazmuniy izohini talabalardan og'zaki so'rang va ular javobini tinglang.

II BOSQICH

Bu bosqichda talabalarning har biriga barcha pedagogik vaziyatlar tegishli javoblari bilan tarqatiladi. Tarqatilgan har bir vaziyatlarni talabalar o'zlari hyech kimning yordamisiz bajarishi lozim.

Oldingizda noqulay pedagogik vaziyatlar qatori berilgan. Ularning har biri bilan tanishib chiqib, berilgan vaziyatga ta'sir javob variantlardan fikringizga ko'ra to'g'risini tanlang.

1-VAZIYAT

Darsni boshladingiz, auditoriyada tinchlik hukmron surmoqda. Birdan kimdir kulub yubordi. Siz kulib turgan talabaga savol va xayrat nazari bilan qaradingizda, u sizga tik qarab gapirdi: "Men uchun sizga qarsh doim kulgili va kulgim keladi".

Bunga siz qanday ta'sirlanasiz?

1. "Mana senga!"
2. "Senga nimasi kulgili?"
3. "Bilganingni qil"
4. "Sen, nima jinnimisan?"
5. "Xushchaqchaq odamlarni yoqtiraman"
6. "Senda xush kayfiyatni uyg'otganimdan xursandman"

2-VAZIYAT

Bu auditoriyada bir necha dars o'tganimizdan so'ng, talaba sizga yuzlanib, "Men o'ylamaymanki, siz pedagog sifatida bizlarga biror narsani o'rgatasiz"

Sizning ta'siringiz:

1. "Sening ishing o'qish, o'qituvchiga o'rgatish emas"
2. "Sendaylarni, men, albatta, hyech narsaga o'rgatolmayman"
3. "Balki, senga boshqa guruhga o'tish yoki boshqa o'qituvchida o'qishing ma'qulroqdir"
4. "Shunchaki, sen o'qishni hohlamaysan"
5. "Qiziq, nimaga sen bunday deb, o'ylaysan"
6. "Kel, bu to'g'rida ochiqroq gaplashamiz. Balki, o'zimni tutishimda biror-bir narsa bordirki, seni shunday fikrga olib keladi"

3-VAZIYAT

Talaba o'qituvchiga qarab, berilgan vazifani bajarishni hohlamagan holda gapiryapti "Men bu vazifani bajarishni hohlamayman"

O'qituvchining ta'siri qanday bo'lishi kerak?

1. "Hohlamaysanmi- majburlaymiz"

2. “Unda nima uchun o’qishga kelding?”
3. “Senga shuncha yomonroq bo’ladi, o’qimay qolaver. Sening xulqing bir odamni eslatadiki, u o’zining yuziga achchiq qilib, burnini kesib olishni hohlardi”
4. “Sen o’zingga bu to’g’rida hisob berasanmi, bu sen uchun nima bilan tugashi mumkin?”
5. “Tushuntirib berolmaysanmi, nimaga?”

4-VAZIYA T

Talaba o’zining o’zlashtiridan norozi, mavzuni qanday tushunishi, o’zlashtirish kerakligi va o’zining qobiliyatlaridan shubhalangan holda o’qituvchiga dedi: “Nima deb o’ylaysiz, qachondir men ham “a’lo” bahoga o’qir olarmikanman va guruhdagi boshqalardan orqada qolib ketmasmikanman?”

O’qituvchining javobi qanday bo’lishi kerak?

1. “To’g’risin aytganda-shubhalanaman”
2. “Ha, albatta, bundan shubhalanmasliging mumkin”
3. “Senda ajayib qobiliyatlar mavjud va men senga katta umidlar bog’layman”
4. “Nima uchun o’zingdan shubhalanasan?”
5. “Kel gaplashamiz va muammolaringni aniqlab olamiz”
6. “Ko’p narsa bir-birimiz bilan qanday ishlashimizga bog’liq”

5-VAZIYA T

Talaba o’qituvchiga qarab: “Sizning kelgusi ikki darsingizga qatnasha olmayman, chunki yoshlar ijrosidagi konsertga bormoqchiman”.

O’qituvchining munosabati qanday bo’lishi kerak?

1. “Qani, boib ko’rchi!”
2. “Keyingi safar darsga ota-onang bilan kelishingga to’g’ri keladi”
3. “Bu sening ishing, imtixon topshiradigan sen. Shundoq ham qoldirilgan darslaring uchun javob berishingga to’g’rikeladi, men seni keyin albatta so’roq qilaman”
4. “Balki, o’qishni tashlaganing ma’quldir?”
5. “Keyin nima qilmoqchisan?”
6. “Qiziq, nimaga senga konsertga borish darslardan ko’ra qiziqroq”

6-VAZIYA T

Talaba auditoriyaga kirib kelgan o’qituvchiga qarab dedi: “Siz juda ham charchagan va horg’in ko’rinasiz”.

O’qituvchining ta’siri qanday bo’lishi kerak?

1. “Menimcha, sen tomondan menga bunday tanbehlar berish odobdan emas”
2. “Ha, men o’zimni yomon his qilyapman”
3. “Mendan havotirlanma, yaxshisi o’zingga qara”
4. “Bugun ishim ko’pligidan yomon uxladim”
5. “Xavotirlanma, bu darslarimizga xalaqit bermaydi”
6. “juda ham e’tiborli ekansan, mehribonliging uchun rahmat!”

7-VAZIYA T

“Men sezyapmanki, siz olib borayotgan darslar menga yordam bermayapti, -dedi talaba fan o’qituvchisiga qarab va davom etdi, umuman darslarni tashlash haqida o’ylayapman”

O’qituvchining ta’sirlanishi qanday bo’lishi kerak?

1. “Bemani gaplarni bas qil!”
2. “Voy bo’, juda o’ylavording-ku”
3. “Balki, boshqa o’qituvchini toparsan?”
4. “Men yaxshilab bilmoqchi edim, nima uchun senda bunday istak tug’ildi”
5. “Nima deysan, sening muammolaring ustida birga ishlaymizmi?”
6. “Balki, muammolaringni boshqacharoq hal qilish mumkindir”.

8-VAZIYAT

Talabao'ziga ishonishini ko'z-ko'z qilib, o'qituvchiga dedi: "Agar hohlaganimda, men qilaolimaydigan hyech narsa yo'q. Shu bilan birga sizning faningizni o'zlashtirish men uchun hyech narsa emas".

O'qituvchining munosabati qanday bo'lishi kerak?

1. "O'zing to'g'ringda jo'da to'g'ri o'ylayapsan"
2. "Qobiliyatlarining bilan-a? Ishonmayman"
3. "Agar shunday gapirayotgan bo'lsang, balki o'zingni yetarli darajada ishonchli his qilyapsan"
4. "Bunga shubham yo'q, chunki ishonaman, agar istasang, qo'lingdan hamma narsa keladi"
5. "Balki, bunarsa sendan katta mehnatni talab qilar"
6. "Haddan tashqari o'ziga ishonish ishga zarardir"

9-VAZIYAT

O'qituvchining tanbehlariga javoban, talaba dedi: "O'quv predmetini o'zlashtirish uchun, ko'p ishlash kerak emas, meni yetarli darajada qobiliyatli deyishadi"

Bunga o'qituvchining ta'siri qanday bo'lishi kerak?

1. "Nahotki, sening bu fikrga aloqang bor"
2. "Sen haligacha boshingdan o'tkazgan qiyinchiliklar va sening bilimlaring hyech bunga guvohlik bermaydi"
3. "Ko'pchilik o'zlarini yetarli darajada qobiliyatli hisoblaydilar, lekin ko'pchilik bunday emas"
4. "Hursandman, o'zing haqingda yuqori fikrdasan"
5. "Aynan shu narsa seni o'qishda ko'p kuch sarflashga majbur qilishi kerak"
6. "Bu shunday eshitilyaptiki, go'yoki sen o'z qobiliyatlaringga ishonmaysan"

10-VAZIYAT

Talaba fan o'qituvchisiga qarab: "Men yana daftar olib kelishni unutdim"

O'qituvchining munosabati qanday bo'lishi zarur?

1. "Yana -ya?"
2. "Seningcha, bu mas'uliyatsizlikning yaqqol namoyon bo'lishi emasmi?"
3. "Menimcha, ishga jiddiyroq yondoshishingni ayni vaqti"
4. "Bilishni istardim, nimaga?"
5. "Senda, ehtimol, bunga imkoniyating bo'lmagandir?"
6. "Nima deb o'ylaysan, men nima uchun doim senga bu to'g'rida eslataman"

11-VAZIYAT

Talaba o'qituvchi bilan suhbatda, unga murojaat qilib: "Men hohlardimki, siz boshqa talabalarga qaraganda menga yaxshiroq munosabatda bo'lsangiz".

Talabaning iltimosiga o'qituvchining javobi qanday bo'lishi kerak?

1. "Nimaga men boshqalarga nisbatan senga yaxshiroq munosabatda bo'lishim kerak?"
2. "Men erkatoylarni o'ylamoqchimasman"
3. "Menga seday fikrlaydiganlar yoqmaydi"
4. "Aytchi, nimaga boshqa talabalar o'rtasida seni alohida ajratishim kerak?"
5. "Agar men senga aytsam, seni boshqa talabalardan ko'proq yaxshi ko'raman, desam, o'zingni bundan yaxshiroq sezarmiding?"
6. "Nima deb o'ylaysan, o'zi senga qanday munosabatdaman?"

12-VAZIYAT

Talaba o'qituvchiga unga o'qitiladigan predmet haqida yaxshi o'zlashtirish imkoniyatlari bo'yicha o'zining shubhalarini aytdi: "Men sizga meni xavotir qiladigan narsani aytdim. Endi aytingchi, buning sababai nima va men nima qilishim kerak?"

Bunga o'qituvchining javobi qanday bo'lishi kerak?

1. "Menimcha, senda to'laqonlilik yetishmaydi"
2. "Senda tashvishlanishlarga hyech qanday asoslar yo'q"

3. “Asoslangan fikrni aytishdan oldin, men muammoni yaxshiroq tushunib olishim kerak”
4. “Kel, kutamiz, ishlaymiz, bir oz vaqtdan so’ng bu muammoning hal qilinishiga qaytamiz. O’ylaymanki, buni hal qila olamiz”
5. “Men senga aniq javobni aytishga tayyormasman, o’ylab ko’rishim kerak”
6. “Tashvishlanma, o’z vaqtida menda ham hyech narsa o’xshamagan”

13-VAZIYA

Talaba o’qituvchiga qarab: “Menga sizning darslarda gapirishingiz va himoya qilishingiz yoqmaydi”

O’qituvchining ta’sirlanishi qanday bo’lishi kerak?

1. “Bu yomon”
2. “Ehtimol, sen buni tushunmassan?”
3. “Umid qilamanki, keyinchalik darslarimiz davomida fikring o’zgarar”
4. “Nimaga?”
5. “O’zing nimaga yoqtirasan va himoya qilishga tayyorsan?”
6. “Did va rang bo’yicha do’st yo’q”
7. “Nima deb o’ylaysan, men buni gapiraman va himoya qilaman”

14-VAZIYA

Talaba guruhidagi o’rtoqlaridan biriga salbiy munosabatini ochiqchasiga bildirib, gapiradi: “Men u bilan birga o’qishni istamayman”

O’qituvchining javobi qanday bo’lishi kerak?

1. “Nima qilibdi?”
2. “Hyech qocholmaysan, baribir majbursan”
3. “Sen tarafdin bu ahmoqlik”
4. “Lekin u ham bundan so’ng sen bilan o’qishni hohlamaydi”
5. “Nimaga?”
6. “O’ylashimcha, sen nohaqsan”

6-Ilova (4.2)

JAVOBLAR VARAQASI

<i>Vaziyatlar №</i>	<i>Javob variantlari (ballar)</i>						
	1	2	3	4	5	6	7
<i>1</i>	4	3	4	2	5	5	-
<i>2</i>	2	2	3	3	5	5	-
<i>3</i>	2	3	4	4	5	5	-
<i>4</i>	2	3	3	4	5	5	-
<i>5</i>	2	2	3	3	2	4	5
<i>6</i>	2	3	2	4	5	5	-
<i>7</i>	2	2	3	4	5	5	-
<i>8</i>	2	2	4	5	4	3	-
<i>9</i>	2	4	3	4	5	4	-
<i>10</i>	2	3	4	4	5	5	-
<i>11</i>	2	2	3	4	5	5	-
<i>12</i>	2	3	4	5	4	5	-
<i>13</i>	3	2	4	4	5	4	5
<i>14</i>	2	2	3	4	4	5	-
<i>Jami (hammasi)q</i>							

Hamma vaziyatdan yig'ilgan jami ballarni 14 ga bo'lamiz. Agar o'rtacha baho 4,7 balldan yuqori bo'lsa, demak, yuqori kasbiy pedagogik qobiliyat.

Agar, o'rtacha baho 3,8 dan 4,7 ballgacha bo'lsa, demak, o'rtacha kasbiy pedagogik qobiliyat.

Agar, o'rtacha baho 3,8 balldan past bo'lsa, demak, quyi kasbiy pedagogik qobiliyat.

5.1.Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi

<i>O'quv soati:</i> 4 soat	<i>Talabalar soni:</i> 42 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	1- Tematik ma'ruza 2-Ma'ruza-konferensiya
<i>Ma'ruza rejasi:</i>	1. Pedagogik texnologiya haqida tushuncha. 2. Pedagogik texnologiya aspektlari. 3. Pedagogik texnologiya turlari. 4.Ta'limda texnologik yondashish variantlari 5.Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati. 6.Pedagog kadrlarga qo'yiladigan zamon talablari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarni pedagogik texnologiyalar haqida tasavvurlarini shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> • pedagogik texnologiya haqida tushuncha berish; • pedagogik texnologiya aspektlari haqida ma'lumot berish; • ta'limda texnologik yondashish variantlarini yoritish; • pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish. • pedagog kadrlarga qo'yiladigan zamon talablarini taxlil qilish. 	<ul style="list-style-type: none"> • pedagogik texnologiya tushunchasiga ta'rif beradi; • pedagogik texnologiyaning aspektlarini yoritadi; • ta'limda texnologik yondashish variantlarini tushuntiradi; • pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlarini mazmunini yoritadi. • pedagog kadrlarga qo'yiladigan zamon talablarini sanab, izohlaydi.
<i>Ta'lim metodlari:</i>	Ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, munozara metodi.
<i>Ta'lim vositalari:</i>	Ma'ruzalar matni, dokladlar, kodoskop, slayd, qog'ozlar
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy.
<i>O'qitish shart-sharoitlari:</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Nazorat savollari.

**“Ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar”
mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi.
(1– mashg’ulot)**

<i>Faoliyat boskichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O’qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Kirish boskichi (5 minut)	1.1.Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va bugungi darsda o’tiladigan rejalari tanishtiriladi. 1.2. Dars so’ngida o’tilgan mavzu bo’yicha test o’tkazilishi xaqida ogohlantiriladi. (max 2 ball)	Eshitadilar.
II. Asosiy bosqich (55 minut)	2.1.Savol – javob texnikasidan foydalanib talabalarni faollashtiradi: *Tarbiya nima? *Metod nima? *An’anaviy darsning kamchiliklari nimada? *Qobiliyat nima? *Pedagogik texnika nima? 2.2.Rejadagi birinchi savol, ya’ni pedagogik texnologiya xaqidagi ma’lumotlar ekranda ko’rsatiladi va sharhlanadi. (1-slayd) 2.3. Pedagogik texnologiya aspektlari (2-slaydlar) ekranda ko’rsatilib, mohiyatini yoritib beriladi. Asosiy ma’lumotlarga talabalar diqqatini jalb qilinadi. 2.4. Pedagogik texnologiya turlari (3 – 8 slaydlar), (1, 2 ilovalar) orqali ma’lumot beriladi.	Savollarga javob beradilar. Eshitadilar. Yozib oladilar.
III. Yakuniy bosqich (20 minut)	3.1.Mavzuni umumlashtirib xulosa qiladi, eng muhim ma’lumotlarga talabalar diqqatini jalb qiladi. 3.3.Test yechish uchun qog’oz tarqatiladi. Tushuncha beriladi. Ekranda test savollari ko’rsatiladi. (11-slayd). Test savollarini baholash natijasi (max 2 ball) keyingi darsda e’lon qilinishi aytiladi. 3.4. Mustaqil ishlashlari uchun keyingi ma’ruzada o’tiladigan doklidlarga tayyorgarlik ko’rish topshiriladi.	Tinglashadi. Tarqatilgan qog’ozga familiya, ism, guruhlarini, test nomerlarini va javoblarini yozib pedagogga topshira-dilar. Yozib oladilar

“Ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar ”
mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi.
(2 – mashg’ulot)

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O’qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
Tayyorgarlik bosqichi (5 minut)	Mavzularni doklad tayyorlash uchun talabalarga beriladi. 1.Ta’limda texnologik yondashish variantlari 2.Pedagogik texnologiyaning o’ziga xos xususiyati. 3.Pedagog kadrlarga qo’yiladigan zamon talablari. Har bir dokladchiga bittadan taqrizchi, bittadan apponent tayinlanadi. Reglament ishlab chiqiladi. (3-ilova) Boshlovchi tayinlanadi.	Doklad uchun mavzu tanlaydilar. Ma’ruzaga tayinlanadilar.
I. Kirish bosqichi (5 minut)	1.1. Mavzular, ya’ni konferensiyada ko’rib chiqiladigan dokladlar nomi eslatiladi. 1.2. Baholash mezonlari e’lon qilinadi. (4-ilova) 1.3. Reglament e’lon qilinadi.	Eshitadilar.
II. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1. Birinchi dokladchiga so’z beriladi. Doklad yuzasidan taqrizchiga, so’ng apponentga so’z beriladi. Boshlovchi tamonidan dokladchiga savollar berish taklif qilinadi. 2.2. Ikkinchi dokladchiga so’z beriladi. Doklad yuzasidan taqrizchiga, so’ng apponentga so’z beriladi. Boshlovchi tamonidan dokladchiga savollar berish taklif qilinadi. 2.3. Uchinchi dokladchiga so’z beriladi. Doklad yuzasidan taqrizchiga, so’ng apponentga so’z beriladi. Boshlovchi tamonidan dokladchiga savollar berish taklif qilinadi.	Tayyorlangan dokladlarni himoya qiladilar. Taqrizchilar, apponentlar o’z dokladchilariga doklad yuzasidan fikr bildiradilar.
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1.Ma’ruza – konferensiyaga yakun yasaydi. Dokladchilarni tayyorlagan ma’ruzalarini, munozara vaqtida faolligini baholaydi. Ma’ruza – konferensiyaga umumiy xulosa qiladi. 3.2.Mustaqil ta’lim uchun vazifa beradi: nazorat uchun savollarga og’zaki javob berish. (5-ilova)	Savollar beradilar. Savollarni yozib oladilar.

Педагогик технология-таълим шакли, усули, услублари, тарбиявий воситаларнинг махсус йиғилишини аниқловчи психологик-педагогик кырсатмаларнинг мажмуидир.

Педагогик технология-бу ўқув жараёнини амалга оширилишининг сермазмун техникасидир. (Г. Беспалько)

Педагогик технология-ўқитишнинг режалаштирилган натижаларига эришиш жараёнининг тавсифларидир.

Технология- бу санъат, мащорат ва қобилият, ишлов услубларининг мажмуидир. (Шепель)

Педагогик технология-бу ўқув жараёнининг лойищалаштирилиши, ташкил этилиши, ытказилиш быйича барча тавсилотлари билан ыйлаб чиқилган жамоа педагогик фаолиятининг модели ҳисобланади. У талаба ва педагогларга қулай шароитлар яратиши шарт. (Монахов)

Педагогик технология-бу таълим шакллари оптимизациясини ызига мақсад қилиб олган инсон ва техник ресурслари ва уларнинг ызаро таъсирини щисобга олган щолда ўқитиш жараёнини ташкил этиш, қўллаш ва аниқлашнинг ҳамда билимларни ўзлаштиришнинг услубларидир^[1]. (ЮНЕСКО)

Педагогик технология-педагогик мақсадларга эришиш учун қўлланиладиган шахсий, интеллектуал, услубий воситаларнинг амал қилиш тартибидир. (Кларин)

Педагогик технология аспектлари.

Педагогик технология тушунчаси 3 аспектда намоён былиши мумкин:

1. Илмий аспект-педагогик технология педагогик фаннинг қисми сифатида таълим услублари, таркиби ва мақсадларини ишлаб чиқади ва ўрганеди, щамда шу билан бирга педагогик жараёнларини лойищалаштиради.

2. Процессуал-тавсифий аспект - таълимда режалаштирилган натижаларга эришиш учун жараённи тасвирлаш, мақсад, таркиб, услуб ва воситалар мажмуидир.

3. Процессуал-амалий аспект - педагогик (технологик) жараённинг амалга ошиши, барча педагогик методологик (услубий), инструментал воситаларнинг амал қилиш.

Педагогик технология турлари ва уларнинг тавсифи

Замонавий таълимни ташкил этишга қўйиладиган муҳим талаблардан бири ортиқча рухий ва жисмоний куч сарф этмай, қисқа вақт ичида юксак натижаларга эришишдир. қисқа вақт орасида муайян назарий билимларни ўқувчиларга етказиб бериш, уларда маълум фаолият юзасидан кыникма ва малакаларни шосил қилиш, шунингдек, ўқувчилар фаолиятини назорат қилиш, улар томонидан эгалланган билим, кўникма ҳамда малакалар даражасини баҳолаш ўқитувчидан юксак педагогик маҳорат ҳамда таълим жараёнига нисбатан янгича ёндошувни талаб этади.

Бугунги кунда бир қатор ривожланган мамлакатларда бу борада катта тажриба тўпланган бўлиб, ушбу тажриба асосларини ташкил этувчи методлар интерфаол методлар номи билан юритилмоқда.

«Фикрлар хужуми» технологияси

Мазкур метод ўқувчиларнинг машғулотлар жараёнидаги фаолликларини таъминлаш, уларни эркин фикр юритишга рағбатлантириш ҳамда бир хил фикрлаш инерциясидан озод этиш, муайян мавзу юзасидан ранг — баранг ғояларни тушплаш, шунингдек, ижодий вазифаларни хал этиш, ечиш жараёнининг дастлабки босқичида пайдо бўлган фикрларни енгишга ыргатиш учун хизмат қилади. «Фикрий хужум» методи А.Ф.Осборн томонидан тавсия этилган бўлиб, унинг асосий тамойили ва шarti машғулот (бахс)нинг шар бир иштирокчиси томонидан ўртага ташланаётган фикрга нисбатан танқидни мутлақо таъқиқлаш, ўар қандай луқма ва хазил — мутойибаларни рағбатлантиришдан иборатдир. Бундан кызланган мақсад ўқувчиларнинг машғулот (бахс) жараёнидаги эркин иштирокини таъминлашдир. Таълим жараёнида ушбу методдан самарали ва муваффақиятли фойдаланиш ўқитувчининг педагогик машорати ва тафаккур кўламининг кенглигига боғлиқ бўлади. «Фикрий хужум» технологиясидан фойдаланишда ўқувчиларнинг сони 15 нафардан ошмаслиги мақсадга мувофиқдир. Ушбу методга асосланган машғулот бир соатга қадар ташкил этилиши мумкин.

«Иқтисодчи-раҳбар» технологияси

Бу усул талабаларни ижодий, мустақил, образли фикрлашга ўргатади. Иш режасини тузиш, танқидий фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам беради. Масалан, «Ўзини-ўзи бошқариш», «Раҳбарнинг ташкилий қобилиятлари», «Замонавий тадбиркор шахси», «Замонавий иқтисодчининг шахси» деб номланувчи мавзуларнинг якунида «Иқтисодчи-раҳбар» деган янги усулдан фойдаланилади. Ҳар бир талабага варақлар тарқатилади, уларда «Мен фирма директори», «Мен фермер», «Мен банкир», «Мен тадбиркор», «Мен оддий ишчи» каби саволлар ёзилган. Ҳар бир гуруҳ талабаси ўзига тушган фаолиятни таърифлаб, мазмунини очиб беради.

«Ялпи фикрлар ҳужуми» методи

Ушбу метод Ж.Дональд Филипс томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, уни бир неча 10 (20-60) нафар ўқувчилар дан иборат синфларда қўллаш мумкин.

Метод ўқувчилар томонидан янги ғояларнинг ўртага ташланиши учун шароит яратиб беришга хизмат қилади. Щар бири 5 ёки 6 нафар ўқувчиларни ўз ичига олган гуруҳларга 15 дақиқа ичида ижобий ҳал этилиши лозим бўлган турли хил топшириқ ёки ижодий вазифалар берилади. Топшириқ ва ижодий вазифалар белгиланган вақт ичида ижобий ҳал этилгач, бу ҳақида гуруҳ аъзоларидан бири ахборот беради.

Гуруҳ томонидан берилган ахборот (топшириқ ёки ижодий вазифанинг ечими) ўқитувчи ва бошқа гуруҳлар аъзолари томонидан муҳокама қилинади ва унга баҳо берилади. Машғулот якунида ўқитувчи берилган топшириқ ёки ижодий вазифаларнинг ечимлари орасида энг яхши ва ўзига хос деб топилган жавобларни эълон қилади. Машғулот жараёнида гуруҳ аъзоларининг фаолиятлари уларнинг иштироклари даражасига кыра баҳолаб борилади

Ақлий хужум методи

«Ақлий хужум» - муаммоларни ҳал қилишда кенг қўлланадиган анчагина машхур методдир. Бу усул катта миқдордаги ғояларни йиғиш, талабаларни айнаи бир хил фикрлаш инерциясидан холи қилиш, ижодий вазифаларни ечиш жараёнида дастлаб пайдо бўлган фикрларни енгшидир. У қатнашчиларни ыз тасавурлари ва ижодларидан фойдаланишга ундайди ва берилган ҳар қандай муаммога кып сонли ечимлар топишда ёрдам беради (бу вазиятда мен нима қилишим керак? Бу тўсикни қандай бартараф қилишимиз керак?). Ақлий хужум кадриятларни танлаш ва мукобилларини аниқлашда ёрдам беради.

«Тармоқлар» методи (Кластер)

Бу усулнинг маъноси – фикрларнинг тармоқланиши. «Кластер» технологияси – педагогик стратегия бўлиб, ўқувчи- талабаларни бирон бир мавзуни чуқур ўрганишларига ёрдам беради. Ўқувчи- талабаларни мавзуга тааллуқли тушунча ёки аниқ фикрни эркин ва очик равишда кетма-кетлик билан узвий боғланган ҳолда тармоқлашларига ўргатади. Бу усул бирон мавзуни чуқур ўрганишдан аввал ўқувчи-талабаларнинг фикрлаш фаолиятини жадаллаштириш ҳамда кенгайтириш учун хизмат қилади. Шунингдек, ўтилган мавзуни мустаҳкамлаш, умумлаштириш ҳамда ўқувчи-талабаларни шу мавзу бўйича тасавурларини чизма шаклида ифодалашга ундайди.

Венна диаграммаси

2 ва 3 жихатларини солиштириш, таккослаш, карама- карши куйиш ҳамда уларни умумий тарзда курсатиш учун қулланилади. Тизимли мушоҳада қилиш, таккослаш, солиштириш, таҳлил ва синтезни амалга ошириш қуникмаларини ривожлантиради




Венна диаграммасини тузиш қоидалари билан таништирилади. Якка (жуфтликда) Венна диаграммаси қурилади ва кесимидайган айлана қисмлари (X) тулдирилади



Жуфтликларга бирлаштирилади, узунинг диаграммаси таккосланади ва тулдирилади.



Айланалар кесмиган жойда улар нуқтаи назаридан икки-уч айлана (XX-XXX) учун умумий бўлган маълумотлар жихатлари руйхати тузилади



«Aqiy hujum» metodining asosiy qoidalari.

4-ilova (5.1)

<i>Baholash mezonlari. (ballarda)</i>	<i>Dokladchilar</i>			
1. Doklad tuzilishi (1,0) - dolzarbligi; - himoyadagi aniqlik; - xulosalarni aniq keltirilishi. 2. Ma'lumotlarning yangiligi (0,5). 3. Ma'lumotlarni yetkazish yo'llarini ishlab chiqilganligi (0,4). 4. Reglamentga rioya qilishi (0,1)				
<i>Jami:</i>				

5-ilova (5.1)

Nazorat uchun savollar.

1. Pedagogik texnologiyalar xaqida tushuncha bering?
2. Pedagogik texnologiyalarning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat.
3. Noan'anaviy ta'lim texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish an'anaviy ta'limdan qanday farq qiladi?
4. Ta'lim texnologiyalaridan klaster tuzing?
5. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyatini qanday tushunasiz?
6. Pedagog kadrlarga qo'yiladigan zamon talablari nimalardan iborat?
7. Darsda samaradorlikka erishish ko'proq kimning faoliyatiga bog'liq deb uylaysiz?
8. Muammoli vaziyatlarni bartaraf etish uchun tajribali, mahoratli o'qituvchi nimalarga ko'proq e'tibor berish lozim?
9. Aqliy xujum texnologiyasiga ta'rif bering?
10. Iqtisodiy ta'limda ko'llanadigan ta'lim texnologiyalarini ko'rsatib uting?

5.3. Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 20
Mashg'ulot shakli	Munozara - amaliy mashg'ulot.
Mashg'ulot rejasi	1. Pedagogik texnologiya haqida tushuncha. 2. Pedagogik texnologiya aspektlari. 3. Pedagogik texnologiya turlari. 4. Ta'limda texnologik yondashish variantlari 5. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati. 6. Pedagog kadrlarga qo'yiladigan zamon talablari.
<i>Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarni mustaqil dokladlar tayyorlashga o'rgatish, mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishni ta'minlash.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari.</i>
<ul style="list-style-type: none"> • mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi; • mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mus-tahkamlashga yordam beradi; • kichik guruhlarda ishlashni tashkil qiladi; • o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi; • mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi; 	<ul style="list-style-type: none"> • amaliy mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi; • pedagogik texnologiya haqidagi tushunchaga ta'rif beradi; • pedagogik texnologiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni sanab o'tadi, o'zining erkin fikrini namoyon etadi; • shaxs rivojlanishida yosh va individual xususiyatlarga izoh beradi, yoritadi. • tarbiya turlari va uning ta'lim jarayonidagi o'rnini o'rganadi;
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Amaliy ishlash usuli, baxs-munozara.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, format qog'ozlar, doska, bor.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa va individual ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.

“Ta'limda pedagogik texnologiyalar” amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Faoliyat bosqichlari</i>	<i>Faoliyat mazmuni.</i>	
	<i>ukituvchi</i>	<i>Talaba</i>
Tayyorgarlik boskichi (5 minut)	1. Munozara uchun savollar va oraliq xulosalar tayyorlaydi qo'shimcha misollar va munozarani qo'llash uchun tavsiyalar taklif etiladi. (Ilova 1) * munozarani tartibli o'tkazish uchun aniq savollar belgilanadi. * Xulosa tayyorlash va umimlashtirish uchun tegishli aloxida vaziyatlarni tashkil etiladi.	Doklad uchun mavzu tanlaydilar. Ma'ruzaga tayinlanadilar.
I. Kirish bosqichi. (10 minut)	1.1. Mavzuning qisqacha mazmuni bilan tanishtiradi. 1.2. Mashg'ulot munozara shaklida o'tkazilishi va uning tartibi xaqida tushuntiradi.	Eshitadilar, tegishli savollarni berishga xarakat qiladilar.
II. Asosiy bosqich (60 min ut)	2.1. Talabalarni faollashtirish maqsadida tezkor savol – javob o'tkaziladi. (2-ilova). 2.2. Talabalarda pedagogik texnologiya haqidagi umumiy tushunchalar mustaxkamlanadi. Pedagogik texnologiyaning bugungi kundagi	Faol qatnashadilar. Eshitadilar.

	<p>dolzarbligi, muammolari, axamiyatli jixatlari xaqida suhbat o'tkaziladi.</p> <p>2.3. Talabalarni o'z fikrlarini bildirishlarini va jamoaviy muxokama qilishlarini tashkillashtiradi.</p> <p>2.4. Jamoaviy fikrlashni boshqaradi: -savollar beradi (3-ilova). -fikrlarga o'z munosabatini bildiradi -munozarani borishini nazorat qiladi -munozara vaqtida fikrlarni to'ldiradi, aniqlik kiritadi, to'liq bo'lmagan fikrlarga izox beradi.</p> <p>2.5.Savollarga berilgan javoblarni umumlashtiradi.</p>	<p>O'z fikrlarini bildiradilar, faol qatnashadilar, jamoaviy munozarada aktiv ishtirok etadilar, javob beradilar.</p> <p>Eshitadi.</p>
<p>III. Yakuniy bosqich (10 minut)</p>	<p>3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonini orqali rag'batlantiradi.</p> <p>3.2. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi: nazorat uchun savollarga og'zaki javob berish. (4-ilova)</p>	<p>Eshitadi. Aniqlaydi.</p> <p>Yozadilar.</p>

1- ilova (5.2)

Мунозара иштирокчисига эслатма.

- 1.Мунозара шахсий муносабатларни хал қилиш эмас, балки муаммони ечиш услуби хисобланади.
- 2.Жудаям узоқ гапирма, бошқаларга ҳам фикр билдириш имконини бер.
- 3.Сўзларни ўйлаб, хиссиётларингни жиловлаб гапир, шунда сенинг ақлли фикрларинг мақсадга етаклайди.
- 4.Бошқаларнинг тутган йўлини ўрган ва уларга хурмат билан қара.
- 5.Фақатгина мунозара мавзуси бўйича гапиришга ҳаракат қил.
- 6.Ўз нутқинг билан бошқаларни беҳурмат қилишдан чеклан.

2- ilova (5.2)

«Блиц-сўров» саволлари.

1. Педагогик технология нима?
- 2.Педагогик технологияга тавсифларни тушунтиринг?
- 3.Техника нима? Технология нима?
- 4.Тарбия нима?
- 5.Таълим нима?

Munozara o'tkazish uchun savollar va xulosalar:

1. Pedagogik texnologiya haqida tushuncha.

- (1) Ta'lim texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?
- (2) Ta'lim texnologiyalari fanga kachondan boshlab kirib kelgan?
- (3) Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi xakida tushuncha bering?
- (4) Ta'lim texnologiyalarining turlarini tushuntiring?

Xulosa: Pedagogik texnologiyalar ta'limning samarador uslublari bhlid *Texnologiya*- bu bir ishda, mahorat va san'at qo'llaniladigan usullar yig'indisidan iborat.

Pedagogik texnologiya-ta'lim shakli, usuli, uslublari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'ilishini aniqlovchi psixologik-pedagogik ko'rsatmalarning majmuidir.

Pedagogik texnologiya-bu o'quv jarayonini amalga oshirishning sermazmun texnikasidir. (G. Bepalko)

Pedagogik texnologiya-o'qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishish jarayonining tavsiflaridir.

Texnologiya- bu san'at, mahorat va qobiliyat, ishlov uslublarning majmuidir. (Shepel)

Pedagogik texnologiya-bu o'quv jarayonining loyihalashtirilishi, tashkil etilishi, o'tkazilish bo'yicha barcha

tavsilotlari bilan o'ylab chiqilgan jamoa pedagogik faoliyatining modeli hisoblanadi. U talaba va pedagoglarga qulay sharoitlar yaratishi shart. (Monaxov)

Pedagogik texnologiya-bu ta'lim shakllarini optimizasiyasini o'ziga maqsad qilib olgan inson va texnik resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish, qo'llash va aniqlashning hamda bilimlarni o'zlashtirishning uslublaridir^[1]. (YuNESKO)

Pedagogik texnologiya-pedagogik maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladigan shaxsiy, intellektual, uslubiy vositalarning amal qilish tartibidir. (Klarin)

2. Pedagogik texnologiya aspektlari

- 2.1. Pedagogik texnologiyalarni aspektlari deganda nimani tushunasiz?
- 2.2. Ilmiy aspekt deganda nimani tushunasiz?
- 2.3. Tavsifiy aspekt deganda nimani tushunasiz?
- 2.4. Amaliy aspekt nima?

Xulosa: Pedagogik texnologiya aspektlari.

Pedagogik texnologiya tushunchasi 3 aspektda namoyon bo'lishi mumkin:

1. *Ilmiy aspekt*-pedagogik texnologiya pedagogik fanning qismi sifatida ta'lim uslublari, tarkibi va maqsadlarini ishlab chiqadi va o'rganadi, hamda shu bilan birga pedagogik jarayonlarini loyihalashtiradi.

2. *Prosessual-tavsifiy aspekt* - ta'limda rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun jarayonni tasvirlash, maqsad, tarkib, uslub va vositalar majmuidir.

3. *Prosessual-amaliy aspekt* - pedagogik (texnologik) jarayonning amalga oshishi, barcha pedagogik metodologik (uslubiy), instrumental vositalarning amal qilish.

3. Pedagogik texnologiya turlari.

- 3.1. Pedagogik texnologiya turlarini tushuntiring?
- 3.2. Ta'limda qo'llanayotgan ta'lim texnologiyalarini tushuntiring?
- 3.3. Pedagogik texnologiyaga yondashuv variantlari xakida tushuntiring?

Xulosa: Pedagogik texnologiya turlari:

- Aqliy xujum;
- Klaster;
- Venna;
- Skarabey;

- Delfi;
- Akvarium;
- Veyer;

4- ilova (5.2)

Назорат учун саволлар:

- 1. Педагог кадрларга қўйиладиган замон талаблари нималардан иборат?**
- 2. Дарсда самарадорликка эришиши кўпроқ кимнинг фаолиятига боғлиқ деб уйлайсиз?**
- 3. Муаммоли вазиятларни бартараф этиши учун тажрибали, мажоратли ўқитувчи нималарга кўпроқ эътибор бериши лозим?**
- 4. Ақлий хужум технологиясига таъриф беринг?**
- 5. Иқтисодий таълимда қўлланадиган таълим технологияларини кўрсатиб утинг?**
- 6. Педагогик технологиялар хақида тушунча беринг?**
- 7. Педагогик технологияларнинг мақсади ва вазифалари нималардан иборат.**
- 8. Ноанъанавий таълим технологияларидан дарс жараёнида фойдаланиши анъанавий таълимдан қандай фарқ қилади?**
- 9. Таълим технологияларидан кластер тузинг?**
- 10. Педагогик технологиянинг ўзига хос хусусиятини қандай тушунасиз?**

2-BO'LIM

1 MAVZU	PSIXOLOGIYA FANINING DOLZARB VAZIFALARI, PREDMETI. YANGICHA TAFAKKUR VA MILLIY MAFKURA SHAKLLANISHI SHAROITIDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING TUTGAN O'RNI
----------------	--

(ma'ruza – 2 soat)

1.1. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

<i>Mashg'ulot shakli</i>	<i>Kirish-mavzu bo'yicha ma'ruza</i>
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Yangi davr va psixologiya. 2. Psixologiya fan sifatida. 3. Psixologiyaning predmeti. 4. Psixika va uning namoyon bo'lish shakllari. 5. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni. 6. Psixologiyaning tarmoqlari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i>	O'quv kursi haqida umumiy tasavvurni berish, psixologiya fanining predmeti, vazifalari, yangicha tafakkur va milliy mafkura shakllanishi sharoitida psixologik bilimlarning tutgan o'rnini tushuntirish
<i>Tayanch tushuncha va iboralar</i>	psixologiya, psixik jarayonlar, psixologik holatlar, shaxs xususiyatlari, maxsus tarmoqlar
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
kursning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish;	kursning maqsadi va vazifalarini aytib bera oladilar;
kursning tuzilmasi, o'quv faoliyatini baholash mezonlari hamda tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati haqida ma'lumot beriladi;	kursning tuzilmasi, o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va baholash shakllarini aytib bera oladilar;
shaxsni o'rganishda kuzatilgan turli nazariyalar mohiyati yoritiladi	psixologiyaning nazariy yo'nalishlari va amaliyoti yutuqlarini yoritib bera oladilar;
psixika va uning namoyon bo'lish shakllariga oid tushunchalari yoritib beriladi;	psixika va uning shakllariga ta'rif bera oladilar;
psixikaning turlari sanab o'tiladi va tasnifi beriladi;	psixikaning turlari va tasnifini bera oladilar;
psixologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi tushuntiriladi;	psixologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligini asoslab bera oladilar;
psixologiyaning tarmoqlari bilan tanishtiriladi.	psixologiyaning tarmoqlarini aytib bera oladilar.
• O'qitish usullari	Ma'ruza, namoyish, blis-so'rov, aqliy xujum, klaster
• O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, komp'yuter texnologiyasi, slaydlar
• O'qitish shakllari	Frontal, kollektiv ish
• O'qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona
• Monitoring va baholash	Kuzatish, og'zaki nazorat, yozma nazorat, o'quv topshiriq

Ma'ruzaning texnologik kartasi


Ish jarayoni bosqichlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1 bosqich. Kirish (15 daqiqa)	<p>1.1. O'quv fanining nomini ayta-di, predmetning dastlabki umu-miy tasavvurini beradi. Uslu-biy va tashkiliy tomonlari, talabalar bilimlarini baxolash mezonlarini va fan struk-turasini tanishtiradi. (1-ilova)</p> <p>1.2. Mazkur fanning o'rgani-ladigan mavzulari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar, ularning uzviyligi xaqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi. (2-ilova)</p> <p>O'quv dasturini talabalarga tanishtiradi.</p> <p>1.3. Ma'ruza darsining maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. Talabalarni aqliy xujumga tortish uchun jonlantiruvchi savollar beradi. (3-ilova).</p>	<p>Tinglaydi va yozadi</p> <p>Mavzu nomini yozib oladilar</p> <p>Savollarga javob beradi</p>
2 bosqich. Asosiy jarayon (55 daqiqa)	<p>2.1. Ma'ruza rejasining barcha savollari bo'yicha vizual materialni namoyish qiladi. (4- ilova)</p> <p>Mavzuning asosiy joylarini yozib olishlarini so'raydi.</p> <p>Faollashtiruvchi savol-javob o'tkazadi.</p> <p>Birinchi reja savoli bo'yicha:</p> <p>1. «Psixologiya» deganda nimani tushunasiz?</p> <p>Ikkinchi reja savoli bo'yicha:</p> <p>2. «Psixologiya» fanini o'rganish bo'yicha fikringiz?</p> <p>Uchinchi reja savoli bo'yicha:</p> <p>3.Psixikaning namoyon bo'lish shakllari nimalardan iborat?</p> <p>To'rtinchi reja savoli bo'yicha:</p> <p>4.Psixologiyaning asosiy kategoriyalari deganda nimani tushunasiz?</p> <p>Javoblarni to'g'rilaydi va xulosalaydi.</p> <p>2.2. Mavzuning tayanch iboralari kerakli tushuncha va iboralar qo'shiladi. Javoblarni to'g'rilaydi va xulosalaydi. (5-ilova)</p> <p>2.3. Talabalarga erkin fikr aytishga ruxsat beriladi va ularni rag'batlantiradi.</p>	<p>Tinglaydi, o'rganadi, Yozadi, aniqlaydi, savollar beradi.</p> <p>Asosiy joylarini yozadi</p> <p>Savollarga javob beradi</p> <p>Xar bir tayanch tushuncha va iboralarni muxokama kiladi. Yozadi.</p> <p>Javob beradi</p>

<p>3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi. 3.2. Talabalarning bilim va ko'nikmalarini baxolaydi. 3.3. Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan masalani e'lon qiladi, va mustaqil tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi. 3.4. Talabalarga uyga vazifa qilib: (1). "Psixologiya va yangi davr" mavzusida esse yozib kelish; (2). Mustaqil ishlash uchun mavzular taklif etiladi; (3). Kelgusi mavzu e'lon kili-nadi va unga tayyorlanib kelishni aytadi. (4). O'zini-o'zi nazorat qilish uchun savollar beradi. (6- ilova). (5). Tavsiya etilgan adabiyotlarni o'rganishga beradi.</p>	<p>tinglaydi</p> <p>Mustaqil ishlash uchun topshiriqni yozib oladi</p> <p>Dokladlar mavzusiga tayyorlanadi.</p> <p>O'UMga qarang</p>
---	---	--

2-ilova(1.1)

Fanning tarkibiy-mantiqiy tuzilishi





3–ilova (1.1)


Мавзуни жонлантириш учун саволлар


1. Психология фанининг предмети нима?
2. Психологияга асос солинган йил?
3. Психология сўзининг маъноси қандай?
4. Психология фани ўрганадиган жараёнлар?
5. Психиканинг намоён бўлиш шакллари қандай кўринишга эга?
6. Психология қайси фанлар билан ўзаро боғлиқ?
7. Психик жараёнлар деб нимага айтилади?
8. Психологик ҳолатлар қандай кўринишга эга?
9. Шахснинг индивидуал хусусиятлари нима?
10. Психологиянинг қандай тармоқлари мавжуд?

4 – ilova (1.1)

Vizual materiallar

1-Slayd: Psixikaning namoyon bo'lish shakllari





2-slayd. Tayanch iboralar asosida vizual ma'lumotlar

Психика – юксак даражада ташкил топган материя, мианинг функцияси. Унинг моҳияти туйғулар, идрок, тасаввур, фикрлар, ирода ва бошқалар кўринишида акс эттиришдан иборат.

Психик жараёнлар – у ёки бу психик махсулт ва натижаларни (психик образлар, ҳолатлар, тушунчалар, ҳиссиёт ва х.к.) ҳосил қилувчи, шакллантирувчи ва ривожлантирувчи жараён.

Психология – одамнинг объектив борлиқни сезги, идрок, тафаккур, туйғу-ҳиссиёт ва бошқа психик ҳолатлар орқали акс эттириш жараёнини ўрганадиган фан.

Психик ҳолатлар – психик ҳаёт шакллари, диққат, ҳиссиёт, ирода жараёнларига айтилади. П.Ҳ. (хушчақчақлик, руҳланиш, сиқилиш, зийраклик, қатъийлик, тиришоқлик в.б.) шахсларда маълум даражада барқарор бўлиб, уларнинг муайян хусусиятига ҳам айланиб қолади.

3-Slayd: Psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi



Иқтисодиёт билан психологиянинг ўзаро алоқаси ва ҳамкорлиги ҳам янгилик бўлиб, айниқса, бозор муносабатларига босқичма - босқич ўтиш шароитида иқтисодий онг ҳамда иқтисодий хулқнинг ўзига хос намоён бўлиш қонуниятларини ўрганишда иккала фан тенг хизмат қилади. Янги давр шахсини тарбиялаш ва унинг жамиятга мослашуви масаласида психология иқтисодиёт фанида қўлга киритган ютуқлар, янгиликлар ва иқтисодий самарага эришиш омилларини ҳисобга олса, иқтисодиёт ўз навбатида иқтисодий ислохотларнинг объекти ҳамда субъекти бўлмиш инсон омилидаги барча психологик ўзгаришларни аниқлаш, таҳлил қилиш ва шу аснода башорат қилиш

**Психология
ва
фалсафа**

Фалсафа билан бўлган алоқа бу иккала фаннинг инсон ва унинг ҳаёти моҳиятини тўла англаш ва унинг ривожланиб бориш тенденцияларини белгилашдаги ўрни ва аҳамиятидан келиб чиқади. Табиат, жамият ва инсон тафаккурининг ривожланишига оид бўлган умумий қонуниятлар ва тамойилларни психология фалсафанинг базасидан олади ва шу билан бирга ўзи ҳам инсон онги ва тафаккури қонуниятлари соҳасидаги ютуқлари билан фалсафани бой маълумотларга эга бўлишига ёрдам беради.

**ПСИХОЛОГИЯ
ВА
СОЦИОЛОГИЯ**

Социология фанининг эришган ютуқларидан психология фани ҳам фойдаланади, чунки бу фанларнинг кўлами кенгаяди. Айниқса, ижтимоий психологиянинг социология билан алоқаси узвий бўлиб, улар жамиятда ижтимоий тараққиёт ва ривожланишни таъминлаш ишига хизмат қиладилар. “Ижтимоий фикр” маркази томонидан олиб бориладиган ижтимоий сўровлари аҳолининг кайфияти, қизиқиши, хохиши, эҳтиёжи, ниятини ифодалаш билан бирга, ҳукумат ва давлат томонидан қандай истиқболли режалар тузиш лозимлигига олиб келади

ПСИХОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА

Педагогика билан психологиянинг ўзаро ҳамкорлиги ва алоқаси ёш авлод тарбиясини замон талаблари руҳида амалга оширишда кўринади. Шахсни камол топтириш, унинг чуқур билимлар соҳиби бўлиб етишиши, баркамоллигини кафолатловчи шарт - шароитлар орасида педагогиканинг ўз услуб ва қоидалари етарли бўлмайди. Шунинг учун ҳам психология у билан ҳамкорликда ёш авлод онгининг таълим олиш даврларидаги ривожланиш тенденцияларидан тортиб, токи янгича ўқитиш технологияларини бола томонидан ўзлаштирилиши ва ундаги ақлий ҳамда интеллектуал қобилиятларга нечоғлик таъсир кўрсатаётганлигини ўрганиш, шахсга таълим ва тарбия беришнинг алоҳида эмас, биргаликда қаралишида педагогика ва психология фанларининг ўзаро узвийлиги муҳимдир.

ПСИХОЛОГИЯ ВА ТАБИИЙ ФАНЛАР

Табиий фанлар: биология, физиология, химия, физика ва б.к. психик ҳодисалар ва жараёнларнинг табиий физиологик механизмларини тушуниш ва шу орқали уларнинг кечиши қонуниятларини объектив ўрганиш учун материал беради. Айниқса, бош миянинг ҳамда марказий асаб системасининг психик фаолиятларини бошқаришда ва уларни мувофиқлаштиришдаги ролини эътироф этган ҳолда психология фани табиий фанлар эришган ютуқлар ва улардаги тадқиқот услубларидан омилкорона фойдаланади. Шахс қобилиятларини диагностика қилиш унинг туғма лаёқатлари ҳамда орттирилган сифатларини бир вақтда билишда психофизиологиянинг қатор усуллари (мия ассиметрияси қонунлари, мия биоритмларини ёзиб олиш, нейродинамик ҳодисаларни аниқлаш, қон айланиш ва тана ҳароратини ўлчаш методлари) ўз ўрнида фойдаланади


Psixologiya va kibernetika

Asab tizimining kuchli, muvozanatli, kam xarakatchan, sustkash tipi qaysi temperamentga mos keladi?

Xolerik

Sangvinik

Flegmatik

Melanxolik

Temperamentning muhim psixologik xususiyatlari nimalardan iborat?

Senzitivlik, faollik, reaktivlik, reaksiya tempi, silliklik, frigidlik, ekstra-vertlik, introvertlik, emosional quzg'aluv-chanlik

Nerv hujayralarining kuchi, muvozanatliligi, epchilligi

Epchillik, xarakat-chanlik, faollik, kuchi, bo'shlik

Faollik, ekstraversiya, introversiya, bo'shlik, xarakatchanlik, kuchi, muvozanatliligi

Xarakterning qanday xislatlari uning xar tomonlama taraqqiyotida namoyon bo'ladi?

Xarakterning kuchida

Xarakter xislatlarining to'laligida

Aniqligida

Bir butunligida

Xarakter-bu:

Odamning ayrim paytlarda mardlik, salobatlilik, rostgo'ylik ko'rsa-tishidagi yakka xususiyat

Kishilarga xos bo'lgan xarakter xislatlar

Kishining xulq-atvorida, uning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan tug'ma xususiyat

Oliy nerv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan va uning hayotida shakl lanib, uning o'z-o'ziga,

boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyat mulki (narsalar, predmetlar) ga bo'lgan munosabatida ifodalanadigan yakka xususiyat

Temperament va xarakter:

O'zaro bog'liq, ammo aynan bir xil emas

Bir-biriga tobe bo'lmagan xususiyatlarga ega

Mohiyatiga ko'ra aynan bir xil xususiyatlarga ega

O'zaro bog'liq emas, bir xil xususiyatlarga ega emas

Xarakter xislatlariga:

Xarakterning nasl, ijtimoiy muhitga bog'liqligi

Iroda, aql-farosat va hissiyotga bog'liqligi

Qatiyatlik, matonat, o'zini tuta bilishga xos xususiyatlar

O'z-o'ziga, atrofdagilarga bo'lgan munosabat

Xarakterning nerv fiziologik asosi - bu:

Oliy nerv-faoliyati-ning umumiy tipi

Analizatorlar kompleksi (yig'indisi)

Bosh miya po'stida muvaqqat bog'lanishlar tizimi

Nerv hujayralarining induksiyasi

Quyidagilardan qaysi biri xarakter tuzilishini ko'rsatadi:

Xarakterning iroda, hissiyot va aql-farosat tomoni

Xarakterning kuchi va mustaqilligi

Xarakter xususiyat-larining faolligi

Jamoaga, ayrim odamlarga, o'z-o'ziga, mexnatga, narsalarga bo'lgan munosabat

Qobiliyat – deb:

Kishining mvoqyelikka bo'lgan munosabatida vujudga keladigan va uning xulq-atvori, xati-xarakatida ta'sir qoldiradigan, muhim barqaror psixik xususiyat majmui

Shaxsning makur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farq-

larda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyat

Odamning o'zi bilgan va bajarayotgan narsaga o'z munosabatini boshdan kechirish va muvaffaqiyatini belgilash jarayoni;

His-tuyg'ularning paydo bo'lish tezligi va kuchida, xamda kishining umumiy harakat-
chanligida namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyat majmui

Iste'dod nima?

Kishining muayyan faoliyatga layoqati

Inson qobilyati taraqqiyotining eng yuksak darajasini ta'inlovchi tug'ma imkoniyat

Ko'nikma, malaka, bilim

Qobiliyatlarda namoyon bo'ladigan tug'ma xususiyat.

Faoliyat turlarini sanang

O'yin, o'qish, mehnat, ijodiy faoliyat

O'yin, ijodiy faoliyat

O'qish, mehnat

O'qish, mehnat, ijodiy faoliyat

FAN BO'YICHA IZOHLI LUG'AT (GLOSSARIY):

Adekvatlik – teng, o'xshash, muvofiq kelmoq.

«**Axloq**», «**xulq**» va «**atvor**» so'zlari arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida xam o'z ma'nosida qo'llaniladi. Axloq kishilarning xar bir jamiyatga xos xulq me'yorlari majmuidir. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, xamma soxalarda kishilarning xatti-xarakatlarini tartibga solish funksiyalarini bajaradi.

Analogiya – psixik xodisalar va xulq-atvor xususiyatlarining o'xshashligi.

Anketa – metodlardan biri bo'lib, respondent to'g'risida aniq ko'zlangan ma'lumotlarni yig'ish maqsadida qo'llaniladi.

Apatiya – kishining tevarak atrofdagi olamga nisbatan befarqlik xolati.

Assosiasiya – psixik xodislar orasidagi o'zaro bog'lanish, u ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi.

Astenik – shaxsning faolligini susaytiruvchi kechinmalar.

Attraksiya – bir kishini boshqa kishi ko'rib qolganda, idrok etishda yuz beradigan tafakkur turi.

Audivizual idrok – shaxsning bir vaqtning o'zida ham eshitib, ham ko'rib idrok qilishi.

Autogen mashq – shaxsning o'z-o'zini ishontirish va o'z-o'zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul.

Affekt – kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emosional kechinmalar sifatida ro'y beradigan psixologik holat.

Bakalavriat- o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'limidir.

Bilish, anglash-dunyo xaqidagi yangi bilimlar xisoblanadigan subyekt va obyektning o'zaro ta'sirini, voqyelikning ruxiyatda qayta ta'sir etilishi va aks ettirish jarayonidir.

Biografik metod – odamni uning tarjimai holi bilan bog'liq bo'lgan xujjatlar orqali o'rganish usuli.

Bixeviorizm – psixologiyaning o'rganish predmeti sifatida odam xulq-atvorini olinishi nazariyasi.

Bosqichlar – muloqotda mavjud bo'lgan shaxsning o'zi bilan, boshqalar bilan va avlodlar orasida kechadigan jarayoni.

Breynshorming – aqlga xujum – baxslarni tashkil etishda qo'llaniladigan interfaol usuldir.

Vegetativ nerv tizimi – nerv tizimining organizm ichki a'zolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi.

Verbal – og'zaki ifodalangan nutq.

Genotip – ota-onadan farzandga o'tadigan irsiy belgilar majmui.

Gerontopsixologiya – psixologiya tarmog'i, qarilik davri psixologiyasini o'rganadi.

Gnostik – butun borliqni bilishga yo'naltirilgan faoliyat.

Guruh – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa.

Dars- ma'lum maqsad asosida, belgilangan vaqtda aloxida, bir xil yoshdagi o'quvchilar, yoshlar bilan o'qituvchi raxbarligida olib boriladigan ta'lim jarayoni.

Darslik- maxsus ravishda ukuvchilar uchun yozilgan kitob darslik deb ataladi.

Depressiya – tushkunlik kayfiyati.

Dialog – ikki va undan ortiq kishilarning o'zaro og'zaki gaplashishi.

Dialogik nutq – nutq turlaridan bo'lib, bunda so'zlovchilar barobar teng, birgalikda faollik ko'rsatadi.

Diqqatning barqarorligi – diqqatning ma’lum obyektga uzoq vaqtdavomida muttasil qaratilishi.

Diqqatning ko’lami – bir vaqtning o’zida diqqatning bir qancha obyektga qaratilishi imkoniyati.

Diqqatning ko’chishi – diqqatni ixtiyoriy ravishda bir obyektidan ikkinchisiga ko’chirish.

Diqqatning taqsimlanishi – diqqatning bir vaqtda bir necha obyektga taqsimlanish xususiyati.

Dominant shaxs – boshqalar bilan muomala va munosabat o’rnatishda o’z fikrini o’tkazish xislatining yorqin namoyon bo’lishi.

Dunyoyarash – odamning tevarak-atrofdagi oamga va unda o’zining tutgan o’rniga qarashlaridan kelibchiqqan tizim. Uning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlari yig’indisi.

Yosh davri nizolari – o’ziga xos, uncha uzoqqa cho’zilmaydigan ontogenez davrlari bo’lib, bu vaqtda keskin psixik o’zgarishlar yuz beradi.

Yosh psixologiyasi – turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini o’rganadi.

Jamoa – maqsadlari jamiyat maqsadiga ms keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

Jamoa-insonparvrlilik va javobgarlik ma’suliyatlariga boglikligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar xamda xamkorlikdagi ijtimoiy ijobiy faoliyatiga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyliigi, jamoasidir.

Jamoaning negizi – umuiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishag taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a’zolari.

Idrok- mazkur muddatda sezgi organlarida ularning bevosita ta’sir etishi davomidagi bir butun xodisalar yoki narsalarning inson ongida aks etishidir.

Idrok- mazkur muddatda sezgi organlarida ularning bevosita ta’sir etishi davomidagi bir butun xodisalar yoki narsalarning inson ongida aks etishidir.

Idrokning butunliligi – sezgi a’zlariga bevosita ta’sir etib turgan obyektlarni, ularning belgi va xususiyatlari bilan birgalikda qo’shib idrok etish.

Idrokning konstantligi – idrok sharoiti o’zgarsa-da, idrok qilishdan hosil bo’lgan narsa obrazlarning nisbatan o’zgarماسligi.

Idrokning predmetliligi – jamiki olamdan olingan ma’lumotlarni ichki olam obyektiga kiritish xususiyati.

Ijtimoiy psixologik eksperiment – asosiy metodlardan biri bo’lib, o’zgaruvchan mustaqil turli xolat va jarayonlarning boshqa nomustaqil xolat va jarayonlarga ta’sir etishdagi aniq ma’lumotlariga tayanadi.

Ijtimoiy psixologiya – psixologiya fanining o’ziga xos maxsus tarmog’i bo’lib, unda psixik va jamiyat taraqqiyoti qonunlari o’rganiladi.

Ijtimoiy tasavvurlar – shaxsga jamiyat orqali ta’sir etgan narsa va xodisalarning yaqqol obrazi.

Ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o’zlashtirish jarayoni.

Ilmiy taxmin – tekshirish va tadqiqot olib borish maqsadida ilgaridan kutilishi mumkin bo’lgan xolatning bashorat qilinishi.

Individuallik – individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o’ziga xosligi, qaytarilmasligi.

Interaktiv – shaxslararo munosabatlarda bir-biriga xulq-atvor ta’sir ko’rsatish jarayoni.

Introvert shaxs - shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining nihoyatda pastligi.

Istedod – shaxsning ma'lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi.

Yo'nalish – shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat'i nazar ma'lum yo'lga yo'naltiruvchi barqaror motivlar yig'indisi.

Kasb – faoliyat shakllari birlashmasi bo'lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat subyektini tayyorlashga qo'yiladigan talablar majmui.

Qiziqish - shaxs xarakteriga sabab bo'ladigan faoliyat yo'nalishining ongli shakli.

Qiziqish – shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli narsa yoki xodisalarga munosabati.

Kichik guruh – a'zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo'luvchi kishilar guruhi.

Qobiliyat – shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biror faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati.

Qobiliyatlar – shaxsning ma'lum faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati.

Kommunikativ – shaxslararo munosabatlarda ma'lumot, axborot, g'oyalar almashinuvi jarayoni.

Kontent-analiz – tekshirilayotgan matnda so'z, ibora, abzaslarni ma'no-mohiyatini takrorlanish darajasiga qarab tahlil etish usuli.

Kuzatish – sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog'liq ravishda tekshirish, o'rganish, ma'lumotlar to'plash metodi.

Ko'nikma – odamning ma'lum ishni bajarishga tayyorligida ko'rinadigan qobiliyati. K. mahoratning asosini tashkil etadi.

Longityud tadqiqot – sinaluvchini uzoq muddat va doimiy ravishda o'rganish.

Maksad-bulgusi natijalar xakida xar doim aqlan uylab kurilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar, kelgusidagi rejalar.

Maqsad-bo'lg'usi natijalar xaqida xar doim aqlan o'ylab qurilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar, kelgusidagi rejalar.

Malaka – mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullari.

Melanxolik - temperament turlaridan biri bo'lib, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, xatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotda berilishi bilan xarakterlanadi.

Metod – bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

Metodologiya – tadqiqot, tekshirish usuli bo'lib, bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisidir.

Mehnat – inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o'zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat.

Mehnat psixologiyasi - kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadigan fan.

Mehnat subyekti (egasi) – bu faol harakat qiluvchi, anglash va o'zgartirishga layoqatli, ong va iroda bilan ish olib boruvchi individ yoki ijtimoiy guruh.

Mehnat faoliyati psixologiyasi – bu psixologiyaning bir sohasi bo'lib, inson shaxsini mehnat subyekti sifatidagi shakllanishi xususiyatlarini, mehnatning shart-sharoitlari, yo'llari va usullarini ilmiy jihatdan o'rganadi.

Mobil shaxs - shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining yuqori darajada kuzatilishi.

Monolog – ma'ruzachi tomonidan nutq so'zlanishi, ma'ruzachi aktiv, tinglovchi passiv bo'lgan jarayon.

Monologik nutq – bir odamning o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma ravishda ifodalash nutqi.

Motiv – ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

Motivasiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

Muloqot – ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishi.

Mutaxassislik – faoliyatning aniq shakli bo'lib, mehnat egasining kasbiy tayyorligi, mehnat vositalari, mehnat jarayoni va maqsadining maxsus xususiyatlari bilan belgilanadi.

Negativizm - individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mustaqil fikr, mavqeyi namoyon qilishi.

Nizo bosqichlari – uch bosqichda, ya'ni nizo oldi, nizo va nizodan keyingi bosqichlar.

Nizo turlari – nizolarning kimlar orasida yuzaga kelishiga ko'ra farqlari: shaxslararo, guruhlararo, shaxsiy, etnik, milliy; namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra: ochiq, yopiq, uzoq muddatli, qisqa; mavqye yoki darajaga ko'ra: vertikal va gorizontal; yo'nalishiga ko'ra: destruktiv va konstruktiv.

Nizo hal etish yo'llari – komromiss, ya'ni kelishuv; joyida hal etish; nizodan chekinish; orqaga surish; qochish.

Nizolar – o'zaro ta'sir ko'rsatayotgan kishilarning qarama-qarshi turishi, bunda fikrlar, pozisiyalar, qarashlar teskariligi kuzatiladi.

Noverbal - nutqsiz ifodalangan xarakter, mimika, xolatlarning boshqa shaxsga yo'naltirilishi.

Norasmiy – odamlarning birgalikdagi muloqot va faoliyatlarida ular orasidagi munosabatlarning o'zaro ishonch, bir xil qarash va maqsadlarning ko'zda tutilishi.

Oila – turmush qurish, qarindosh-urug'chilik asosidagi kichik guruh.

Operativ xotira – xotira turlaridan biri bo'lib, faoliyat bajarish jarayonida uzoq xotiradan vaqtincha foydalaniladi.

Pedagog nuktai nazari (pozisiyam) - pedagogning dunyoga, pedagogik voqyelikka va pedagogik jarayon bo'lgan intellektual va xissiy munosabati.

Pedagog nuqtai nazari (pozisiyasi) - pedagogning dunyoga, pedagogik voqyelikka va pedagogik jarayong'a bo'lgan intellektual va xissiy munosabati.

Pedagogik jarayon - ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini xal qi-lishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o'zaro munosabatlari.

Pedagogik jarayon tamoyillari - pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablari bo'lib, u pedagogik jarayonning yo'nalishini ko'rsatadi va uning qonuniyatlarini ochib beradi.

Pedagogik ixtisoslashish - pedagogik ixtisoslik doirasidagi faoliyatning bir turi.

Pedagogik ixtisoslik - ta'lim natijasi o'laroq bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat bir kasbiy gurux doirasidagi faoliyat turi.

Pedagogik malaka - muayyan toifadagi vazifalarni xal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

Pedagogik masala - pedagogik jarayonning asosiy birligi, o'ziga xos tizimdir. U voqyelikni bilish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog'lik tafakkur qilinadigan pedagogik vaziyatdir. Ta'lim qatnashchilarining ma'lum bir maqsadini ko'zlagan ta'lim va tarbiyadagi moddiylashtirilgan vaziyatdir.

Pedagogik maxorat - pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, xarakterga keltira olish (A.S. Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Pedagogik mulokot - ta'lim oluvchilarning maqsadlari xamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni.

Pedagogik takt - shaxslar faoliyatini turli doiralarida ular bilan muloqotda bo'lishning pedagogik tamoyili, o'lchovi, talabalar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini xisobga olgan holda to'g'ri muloqotda bo'la olish malakasi.

Pedagogik texnika – 1) xar bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishning samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va kunikmalar majmuasi; 2) xar bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jixatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va kunikmalar.

Pedagogik tizim - shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayon-ni birlashtirgan ta'limning o'zaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

Pedagogik uyin - bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani ko'zlagan xamda ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi.

Pedagogik faoliyat - ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning aloxida turi.

Pedagogik xaqqoniylik – o'qituvchining obyektivlik mezoni, uning ma'naviy tayyorgarlik darajasi.

Pedagogika fani - maxsus institutlarda (oila, ta'lim va tarbiya, madaniyat muassasalari) maqsadga muvofiq tashkil etiladigan real, yaxlit peda-gogik jarayon.

Pedagogikaning nazariy vazifasi- ilg'or va yangi pedagogik tajribalarni o'rganish.

Pedagogikaning texnologik vazifasi - diagnostik satx - pedagogik xodisalar xolatini aniqlash; bashorat qilish satxi - pedagogik faoliyatni eksnerimental tadqiq qilish va shu asosda pedagogik voqyelikni yaratish modellarini o'rnatish; loyixa satxi- pedagogik faoliyatning nazariy konsepsiyasi, uning mazmuni va xarakteri asosida ularga muvofiq metodik materiallar (o'quv reja, dastur, darslik va o'quv ko'planmasi, pedagogik tavsiyanomalar) ishlab chiqish; yaratuvchilik satxi - pedagogik fan yutuqlarini takomillashtirish va qayta rejalashtirish maqsadida ta'lim amaliyotiga tatbiq etish; reflsktik tuzatma (korrektirovka) satxi - ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta'lim va tarbiya amaliyotiga singib ketishini baxolash.

Perseptiv tomon – shaxslararo munosabatlarda tushunish, his etish, idrok etishga qaratilgan jarayon.

Pilotaj tadqiqot – tadqiqotning muammoli izlovchi turi, asosiy tadqiqotgacha o'tkaziladigan va soddalashtirilgan shakli.

Polilog – guruh ichidagi munozara bo'lib, barcha ishtirokchilar faoolashuvi kuzatiladi.

Preskreptiv - me'yoriy.

Proyektiv malaka - malakaning maxsus turi bo'lib, kutilgan pedagogik natijalarni aniq ta'lim va tarbiya rejalarida aks ettiradi.

Professiogramma - kasbning turli obyektiv xarakteristikalarining tasnifi.

Professiografiya - mehnat subyekting faoliyat tarkiblari (uning mazmuni, vositalari, sharoitlari, tashkilot) bilan o'zaro munosabati va bog'liqligini o'rganish va aniqlashga qaratilgan kompleks metod.

Psixik jarayonlar – u yoki bu psixik maxsult va natijalarni (psixik obrazlar, xolatlar, tushunchalar, xissiyot va x.k.) xosil qiluvchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi jarayon.

Psixik holatlar – psixik hayot shakllari, diqqat, hissiyot, iroda jarayonlariga aytiladi. P.H. (xushchaqchaqlik, ruhlanish, siqilish, ziyraklik, qat'iylik, tirishoqlik v.b.) shaxslarda ma'lum darajada barqaror bo'lib, ularning muayyan xususiyatiga ham aylanib qoladi.

Psixika – yuksak darajada tashkil topgan materiya, miyaning funksiyasi bo'lib, uning mohiyati tuyg'ular, idrok, tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko'rinishida aks ettirishdan iborat.

Psixogramma - faoliyatning psixologik xarakteristikalarining tasnifi.

Psixodiagnostika – shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va o'lchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli.

Psixokorreksiya – shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish usullarini qo'llash jarayoni.

Psixologik maslahat - shaxsning turli darajadagi o'z muammolarini yakka tartibda psixolog bilan tahlil etishiga qaratilgan psixologik xizmat turi.

Psixologik xizmat – psixologiyani amaliyotda qo'llash tizimi. U turli sohalarda diagnostika, konsultasiya, ekspertiza vazifalarini bajaradi.

Psixologiya - 1) shaxsning obyektiv borlikni faol aks ettirish jarayonini o'rganuvchi fan; 2) ma'lum bir faoliyat turining o'zaro shartlangan psixik jarayonlar tuplami; 3) psixika, xarakter xususiyati, ko'ngil xazinasini.

Psixologiya – odamning obyektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u-hissiyot va boshqa psixik xolatlar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fan.

Psixologiya metodlari – psixik xodisalarni va ularning qonuniyatlarini ilmiy tomondan o'rganishning asosiy yo'l-yo'riq va usullari.

Rasmiy – odamlarning birgalikdagi faoliyatlarida, ijtimoiy rollar taqsimotida mavqye, martabaning inobatga olinishi

Rasionalizasiya - metodlarni yoki biror ish - xarakterni takomillashtirish.

Real – birgalikdagi faoliyat jarayonida bevosita muloqot amalga oshishi imkoniyati.

Releksasiya - kuchli xayajon va jismoniy zuriqishdan so'ng yengil yurish, tinchlanishning umumiy xolati.

Retrospektiv - o'tmishga murojaat etish.

Referent guruh – shaxsning har tomonlama ishongan, o'ziga yaqin tutgan guruhi.

Rigid shaxs – shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining past darajada kuzatilishi.

Ruxiy pedagogik tayyorgarlik - pedagogikaning metodologik acoclari va kategoriyalarini, shaxsni ijtimoiylashuvi va taraqqiyoti qonuniyatlari, ta'lim va tarbiyaning moxiyati, maqsadi va texnologik g'oyalarini bilish.

Sangvinik – temperament turlaridan bo'lib, chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez o'zgaradigan, boshqalarga nisbatan dilkashlik, mehribonlik xislatlari bilan xarakterlanadi.

Sanoat psixologiyasi – sanoat va ishlab chiqarishda turli yuzaga keladigan muammo va xolatlarni psixologik va ijtimoiy omillarini tahlil qilib olishga qaratilgan xizmatlari turi.

Simpatiya – bir kishida boshqasiga nisbatan kuzatiladigan moyillik va yoqimlilik hislarining ichki namoyon bo'lishi.

Sosiologiya – jamiyatda yuz beradigan turli-voqyea-xodisalarni va o'zaro munosabatlarni o'rganishga qaratilgan fan.

Suxbat - kuzatuv juda yetarli darajada aniq, bo'lmagan zarur axborotni olish uchun qo'llanadigan tadqiqot metodi.

So'rov – asosiy metodlardan biri bo'lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bivosita ma'lumot olinadi.

Tadqiqot obyekti - ziddiyat va muammoli vaziyat tug'diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy taxlilga muxtoj obyekt.

Tadqiqot predmeti - bevosita o'rganilishi lozim bo'lgan va amaliy yoki nazariy jixatdan muxim axamiyat kasb etadigan obyektning moxiyati, ma'lum bir tomoni, xususiyati.

Tayzik o'tkazish - uyatga qo'yish, aybdorlik xissi yoki ko'ngli chukkanlarning fikri, xissiyoti, intilishi va moyiligi ularning ongidan xalos qilish.

Takabbur - o'z manfaatlarini yuqori quyuvchi, manman shaxs.

Taqqoslash – narsa va xodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashga asoslangan fikrlash operatsiyasi.

Takt - misli ko'rilmagan tarzda o'zini tuta bilish.

Talabalarni kasbga yunaltirish - talaba-yoshlarga kelajakda uz kasblarini aniklab olish uchun yordam kursatishga karatilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chikarish texnik tadbirlarnng asoslangan tizimi.

Talabalarni kasbga yo'naltirish - talaba-yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chikarish texnik tadbirlarnng asoslangan tizimi.

Tafakkur inson aqliy faolnyatnning oliy shakli, insonlarni o'rab olgan duyodagi o'zaro bog'langan narsa va xodisalarni bilish jarayoni, muxim xayotiy jarayonlarni xis qilish va muammolarni xal qilish, ma'lum bo'lmagan voqyea xodisalarni qidirish, kelajakni ko'ra olish. Tafakkur, tushuncha, xukm, xulosa shakllarida namoyon bo'ladi.

Taxlil – tafakkur qilish usuli, bunda murakkab obyektlar qismlarga bo'linib o'rganiladi.

Ta'lim - 1) shaxsning jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayoi, ijtimoiy etalonlarnipg ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo'naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g'oyaviy-axloqiy kadr, malaka, ko'nikma, axloq meyerlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustakil tizim Tarbiya - 1) shaxsning ma'naviy va jismoniy xolatiga muntazam va maqsadga muvofiq, tasir etish; 2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

Ta'lim maskanlari psixodiagnostikasi – shaxsni ta'lim tizimda qobiliyati, iqtidori, iste'dodini aniqlab olish maqsadida olib boriladigan psixologik xizmat turi.

Temperament - 1) shaxsning psixik faoliyati dinamikasining turli jixatlarinn bildiradigan turg'un individual xususiyatlarining qonuniy munosabatlari; 2) shaxsning dinamik xususnyatlari: intensivlik, tezlik, temp, psixik jarayonlar va xolatlar ritmi.

Temperament – shaxsning individual-psixologik xususiyatlari majmui bo'lib, u kishida faoliyat va xulq-atvorning dinamik va emosional tomonlari bilan xarakterlanadi.

Test – sinaluvchini tekshirish jarayonida maxus qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, bu metod orqali aniq bir psixologik xususiyat aniqlanadi.

Tobe shaxs – muloqot va boshqa jarayonlarda shaxsda ko'nikuvchanlik, boshqa kishilarga bog'liqlik, fikriga bo'ysunish xususiyatlarining tarkib topishi.

Trening – mashq qilmoq, guruxlarda muloqotning samarali tashkil etish usuli bo'lib, shaxsning muloqotga o'rgatish va obro'li bo'lishini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi.

Tushunish – biror narsaning ma'nosi va ahamiyatini anglash qobiliyati, asosiy erishilgan natijasi.

Tushuncha – narsa va xodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bitta so'z yoki so'zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat tafakkurning mantiqiy shakli.

Uyin faoliyatnini bir turi bo'lib, ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va bunyod etishga, o'z xatti-xarakatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Ukuv faoliyati - shaxsning yangi bilim, malaka va kunikmalarni egallash jarayoni.

Ukuv-bilish faoliyati - insoniyat tomonidan tuplangan madaniy boylikni egallash bilan boglik faoliyat.

Umumlashtirish – voqyelikdagi narsa va xodislarni umumiy va muhim belgilariga qarab fikran birlashtirishdan iborat tafakkur jarayoni.

Ustanovka – yoʻnalish, kishining tevarak-atrofdagi odamlarga va obyektlarga nisbatan qanday munosabatda boʻlish, ularni idrok qilish, ularga baho berish va ularga nisbatan xarakatining tayyorlik xolati.

Uyushganlik - guruh aʼzolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy prinsiplari, qadriyatlarini anglashlari.

Oʻz-oʻziga baho berish – shaxsning oʻz-oʻziga baho berishi.

Oʻz-oʻzini baxolash - shaxsning uz psixologik sifatleri, xulki, yutuklari va muvaffakiyatsizliklari, kadr-kimmati, kamchiliklarini baxolay olishi.

Oʻz-oʻzini tarbiyalash 1) shaxsga xos boʻlgan madaniyatning shakllani-shi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning oʻz jismoniy, ruxiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

Oʻyin – faoliyat turlaridan biri boʻlib, bolalarning kattalar faoliyatini, ish xarakatlarini aks ettirishda ifodalanadigan va atrofni bilishga qaratilgan faoliyatdir.

Oʻyin - faoliyatning bir turi bulib, ijtimoiy tajribalarni uzlashtirish va bunyod etishga, uz xatti-xarakatlarini takomillashtirishga karatilgan buladi.

Oʻkitish - 1) taʼlimning uziga xos usuli bulib, shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi taʼminlanadi; 2) talaba va ukituvchi, talabaning boshka talabalar bilan alokasi natijasi ularok atrof-muxit, uning konuniyatlari, tarakkiyot tarixi va ularning urganilish usullarini bilishning muntazam boshkarilish jarayoni.

Oʻqitish - taʼlim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratil-gan oʻqituvchining faoliyati.

Oʻkitish vazifasi - taʼlimiy, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalari.

Oʻkitish turlari - sokratcha suxbat metodi, taʼlim berish, izoxlash-namoyish etish asosida ukitish, bilimlarni mustakil egallash, dasturlashti-rilgan taʼlim, ukuv jarayonini algoritmlash, differensiasiyali xamda indnvidual taʼlim va boshkalar.

Oʻqituvchining innovasion faoliyati - ijtimoiy pedagogik fenomen boʻlib, ijobiy imkoniyatni aks ettirish, kundalik faoliyatdan chetga chiqishdir.

Oʻqish – oʻquvchinng oʻz qobiliyati, bilimi, malaka va koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan xarakat.

Oʻqish – shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni.

Oʻquv faoliyati shaxsning yangi bilim, malaka va koʻnikmalarni egallash jarayoni.

Oʻquv-bilish faoliyati - insoniyat tomonidan toʻplangan madaniy boylikni egallash bilan bogʻlik faoliyat.

Faoliyat – insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo boʻladigan va tashqi olam bilan kishining oʻz-oʻzini bilishga, uni qayta qurishga yoʻnaltirilgan faolligi.

Faollik – tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan oʻzaro taʼsirda boʻlishida namoyon boʻladi.

Flegmatik – temperament turlaridan biri boʻlib, harakatlar sekinligi, barqarorligi, emosional xolatlarining tashqi koʻrinishlari kuchli emasligida namoyon boʻladi.

Xalollik - shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarni, axloqiy meʼyorlarni rostguylik bilan saqlash.

Harakat – maqsadga muvofiq yoʻnaltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yigʻindisi. H. Ongli faoliyatning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

Xarakter – kishidagi barqaror psixik xususiyatlarining individual birligi boʻlib, shaxsning mehnatga, narsa va xodisalarga, oʻziga va boshqa kishilarga munosabatlarida namoyon boʻladi.

Xasad - oʻzgalarpiig muvaffaqiyatlarini koʻra olmaslikdan kelib chiqadigan tyygʻu.

Xolerik – temperament turi boʻlib, xissiyot joʻshqinligi, kayfiyatning tezda oʻzgarishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman xarakatchanligi bilan ajralib turishi xosdir.

Xulosa chiqarish – tafakkurning mantiqiy shakllaridan boʻlib, bir qancha xukmlar asosida maʼlum xulosa chiqariladi. X.ch. induktiv, deduktiv va analogik turlarga ajratiladi.

Shakllanganlik - odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida boʻlishi bilan bogʻliq psixologik jarayon.

Shakllar – bevosita va bivosita tur boʻlib, yuzma-yuz yoki vosita orqali amalga oshishi koʻzda tutiladi.

Shartli – odamlarning turli belgi, faoliyat shakllariga koʻra biror guruhga taalluqli deb qarash.

Shaxs – ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shugʻullanuvchi betakror odam.

Shaxs dinamikasi - kishiing ontogenetik rivojlanishini uz ichiga olgan xolda subyektning xususiyatlari va sifatining vaktga nisbatan uzga-rish jarayoni.

Shaxs ijtimoiylashuvi - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda oʻzlashtirish jarayonidir.

Shaxsiy fazilat - shaxs tomonidan uzining axlokiy, ruxiy va ishchan-lik kobilyatining ijtimoiy axamiyatini, jamiyatdagi urnini anglay olish xususiyati.

Shaxslararo munosabat – muloqot jarayonidagi oʻzaro taʼsir etish natijasida roʻy beradigan ijtimoiy-psixologik hodisalar.

Evrastika ilmiy tadqiqotning mantiqiy usullari va metodik koʻrsatmalari.

Egoentrizm – men, markaz maʼnosida individualizm va egoizmning eng tuban turi.

Ekstrovert shaxs – shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida oʻz ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining yuqoriligi.

Emosiya – odam va hayvonlarning subyektiv ifodalangan ichki va tashqi qoʻzgʻoluvchilar taʼsiriga javob reaksiyasi.

Empatiya – boshqa odamlarning psixik holatini tushunish qobiliyati.

Empirik - tajribaga asoslangan.

Empirik boskich tadqiqot obyektiga tugrisida xar tomonlama tasavvur xosil qilish, taʼlim amaliyoti, ilmiy bilimlar saviyasi va xodisalar moxiyatiga erishishga bulgan talab urtasidagi ziddiyat, ilmiy muammoni nomlash.

Empirik bosqich tadqiqot obyektiga toʻgʻrisida xar tomonlama tasavvur xosil qilish, taʼlim amaliyoti, ilmiy bilimlar saviyasi va xodisalar moxiyatiga erishishga boʻlgan talab oʻrtasidagi ziddiyat, ilmiy muammoni nomlash.

Estetik tarbiya - goʻzallikni xis qilish, atrof-muxitdan goʻzallikni payqay olish va tushunishga boʻlgan qobiliyatni tarbiyalash.

Extiyoj - individning biror narsa-xodisaga muxtojligi va kishining ruxiy quvvati xamda faolligi manbai xisoblanadigan asosiy xususiyati.

Extiyoj - individning biror narsa-xodisaga muxtojligi va kishining ruxiy kuvvati xamda faolligi manbai xisoblanadigan asosiy xususiyati.

Extimollik - tasodifiylik, pedagogik xayotdagi uzgarishlarni anik aytib berish mumkin bulmagan, extimol kutilgan jarayon.

Eʼtikod - shaxs amal kiladigan bilim, tamoyil va xodisalarning kalban va asosli ishonch bilan boglangan, uning atrof-muxitga xamda uzining xatti-xarakatlariga bulgan subyektiv munosabati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. T. "O'zbekiston", 1997. 29 avgust. -7 bet.

2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. T. 1997. 29 avgust. 9-10 bet.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari:

3. "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi, 2005 yil, 15 iyun.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini Qarorlari:

4. Islom Karimov. "Erishilgan yutuqlarni mustaxkamlab, yangi marralar sari izchil xarakat qilishimiz lozim". O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatidagi 2005 yil yakunlariga bag'ishlangan ma'ruzasi. 10 fevral, 2006 y.

5. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijalari. Vazirlar Mahkamasining qarori. "Halq so'zi" gazetasi, 16.04.2005

6. «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun darsliklar va o'quv adabiyotining yangi avlodini yaratish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 341-sonli Qarori.

7. «2010 yilgacha bo'lgan davrda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi pedagog va muxandis pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturi» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 4-oktyabrdagi 400-sonli Qarori.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

8. Karimov I.A. "Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezoni bo'lishi darkor". O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatining beshinchi yalpi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2006 yil 25 fevral.

9. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. T.: "O'zbekiston", 2005.-96 b.

10. Karimov I. A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.- "Turkiston", 2002 yil 31 avgust.

11. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T., «O'zbekiston», 2000 y.3-9 bet.

12. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. T., «O'zbekiston» 1999 y.11-15 bet.

13. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. Xalq so'zi, 2006 yil 11 fevral.

V. O'zbekiston Respublikasi vazirliklari me'yoriy-huquqiy hujjatlari:

14. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2000 yil 22 sentyabr 251 sonli buyrug'i.

15. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Ijtimoiy gumanitar fanlar bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlash va nashr etish to'g'risida"gi 2000 yil 19 iyun 176 sonli buyrug'i.

VI. Darsliklar:

16. Andreyeva G.M. Sosialnaya psixologiya. Uchebnik.- M.: Aspekt Press, 1999.-376 s.

17. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.

18. G'oziyev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001

19. G'oziyev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
 20. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: Universitet, 1999.- 96 b.
 21. Karimova V.M. va boshk. Mustaqil fikrlash. - T.: Shark.-2000.- 112 b.
 22. Karimova V.M., Sunnatova R. «Mustaqil fikrlash» o'quv qo'llanmasi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyoti.-T.: Shark, 2000.- 16 b.
 23. Mayers D. Sosialnaya psixologiya perev. S angl.-SPb.: «Piter»,1999 - 688 s.
 24. Metodo' effektivnogo obucheniya vzroslo'x. Uchebno-metodicheskoye posobiya. (Avtorskiy kollektiv) - Moskva - Berlin, 1998 - 124 s.
 25. Prikladnaya sosialnaya psixologiya. / Pod. red. A. Suxova i A.Dergacha.- M, 1998 - 688 s.
 26. Sushkov I.R. Psixologiya vzaimootnosheniy. - M.: Akademicheskiy Proyekt, 1999.- 448s.
 27. Chaldini R. Psixologiya vliyaniya. - SPb.: «Piter», 2000,-272 s.
 28. Gamilton. Ya.S. "Chto takoye psixologiya". "Piter", 2002.
 29. Ananyev B.G. "Chelovek kak predmet poznaniya". "Piter", 2001.
 30. Drujinina V. "Psixologiya ". Uchebnik. "Piter", 2003.
 31. Burlachuk F. Psixodiagnostika. "Piter", 2002.
 32. Ayzenk M. Psixologiya dlya nachinayuhix. "Piter", 2000.
 33. Bolotova A.K, Makarova I.V. Prikladnaya Psixologiya: Uchebnik dlya vuzov.- M.Aspekt Press, 2006 – 382 s.
 34. Vedenskaya L.V, Pavlova L.A. Delovaya retorika: uchebnoye posobiye dlya vuzov.- M.:IKS "MarT", 2004-512 s.
 35. Lojkin .G.V. Povyakel N.I Prakticheskaya psixologiya v sistemax "chelovek texnika": Ucheb.posobiye.- K.: MAUP, 2003 – 296 s.
 36. Nemov R.S. Prakticheskaya Psixologiya Poznaniye sebya: Vliyaniye na lyudey:Posobiye dlya uch-sya-M:Gumanit. Izd.Sentr VLADOS, 2003.320 s.
 37. Makarova I.V. Psixologiya: posobiye dlya sdachi ekzamenov, 2-izd. Dop. M.: Yurayt. Izdat, 2006. – 237 s.
 38. Borozdina G.V. Psixologiya delovogo obhyeniya: Uchebnik. 2-ye izd., M.: Infra, 2006. – 295 s.
 39. Tixomirov O.K. Psixologiya: Uchebnik. M.: Vo'ssheye obrazovaniye, 2006. – 538 s.
 40. Nemov R.S. Psixologiya: Uchebnik. –M.: Vo'ssheye obrazovaniye, 2005.- 639 s.
 41. Psixologiya: Uchebnik. Pod red. B.A.Sosnovskogo. – M.: Yuryt-Izdat, 2005.-660 s.
 42. Tertel A.L. Psixologiya v voprosax i otvetax: uchebnoye posobiye.- M.: Velbi, izd-vo Prospekt, 2005.-176 s.
- VII. O'quv qo'llanmalar:**
43. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. TDIU.- 2005.- 201 bet.
 44. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmuni, loyihalashtirish va amalga oshirish. Ekspres qo'llanma. T. 2001. TESIS loyihasi. 21-26 bet.
 45. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T., 1994, - 94 b.
- VIII. Monografiya va ilmiy maqolalar.**
46. Karimova V.M. Targ'ibotning psixologik uslublari.- T.: Ma'naviyat, 2000 – 16 b.
 47. Karimova V.M. Ota-ona maktabi – baxt kaliti.- T., 2002
 48. Oila psixologiyasi. Prof. /. Shoumarov tahr. ostida.- T.: Sharq, 2001
 49. Petrovskaya L.A. "Kompetentnost v obhyenii". Sosialno-psixologicheskiy trening. M., Universitet, 1989.
 50. Sheynov V. "Psixologiya i etika delovogo kontakta". M., Amalfeya, 1997.
 51. Vecher L. Sekreto' delovogo obhyeniya. Minsk, 1996.

52. Kornilova T. Vvedeniye v psixologicheskiy eksperiment. M., 1997.
53. Chaldini R. Psixologiya vliyaniya. M., 2000.
54. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. «Fan» 2005. 18-20 b.
55. Bekmurodov A. va b. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 1-qism. Makroiqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlar. T. TDIU., 2005. 61 b.
56. Bekmurodov A. va b. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 3-qism. Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji - davr talabi. T. TDIU., 2005. 58 b.

IX. Doktorlik, nomzodlik dissertatsiyalari:

57. Shamiyeva O.R. "Rahbar ayol shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2002.
58. Nuriddinov B. «Kasb ta'limi o'qituvchilari malakasini oshirishda faol o'qitish metodlaridan foydalanishning ilmiy pedagogik asoslari» nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2002.

X. Ilmiy amaliy anjumanlar ma'ruzalar to'plami:

59. O'zbekistonda ayollar faoliyati menejmentini rivojlantirish. T., 2005 29 noyabr.
60. Pedagogik va axborot texnologiyalari: yutuqlar va istiqbollari. T. O'zPFITI. 2003.
61. «Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari» mavzusidagi seminar trening materiallari. T. 2002.
62. Iqtisodiy ta'lim: nazariya, tajriba, muammolar va istiqbol. Halqaro ilmiy-amaliy anjuman. 19 aprel, 2001.

XI. Gazeta va jurnallar.

63. Prezident Islom Karimovning 2005 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Turkiston gazetasi. 2006 yil 11-fevral.
64. Oila. Jurnal. 1-2son. 2005.
65. Xalq ta'limi. Jurnal. 2005 y. 1-2 sonlar.
66. Iqtisodiyot va ta'lim. Jurnal. 1-2 son. 2004.

XII. Statistik ma'lumotlar to'plami

XIII. Internet saytlari

67. www.inetlibrary.com. Internet-kutubxona
68. www.yexpert.psychology.ru
69. www.psycho.all.ru
70. www.psychology.net.ru
71. www.psy.piter.com

XIV. Elektron darslik va o'quv qo'llanma.

72. Ochilova G. Pedagogika. T.: 2005
73. Xayitov O.E. Psixodiagnostika. T.: 2005

XV. Bitiruv malakaviy ishlari.

74. [Yusupov D. "Iqtisodiy ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning amaliy va nazariy asoslari". T., 2005.](#)
75. [Axmedov Sh. "Uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integrasiyalashuvi". T., 2005.](#)
76. [Shamsiyev Q. "Darslarni zamonaviy tashkil etishning shakl va uslublari", T., 2005.](#)
77. [Niyozov F. "Ma'ruza matnlarini tayyorlash uslublari" T., 2005.](#)